

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“FILOLOGIYA” FAKULTETI 4-BOSQICH TALABASI

ASADOVA MUQADDAMNINGNING

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

MAVZU: TURKIY VA FORS-TOJIK ADABIYOTIDA XUSRAV
TIMSOLINING QIYOSIY TAHLILI

Ilmiy rahbar: dots.S.Q.Tohirov

SAMARQAND– 2015

MAVZU:

Turkiy va fors-tojik adabiyotida Xusrav timsolining qiyosiy tahlili

REJA:

I. Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi.

II. Asosiy qism.

1-bob: Xusrav Parviz tarixiy shaxs va badiiy timsol sifatida.

1.1. Xusrav timsolining tarixiy ildizlari.

1.2. Xusrav timsolining badiiy adabiyotga kirib kelishi.

2-bob: XII-XV asrlar adabiyotida Xusrav timsolining badiiy takomili.

2.1. Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonida Xusrav timsoli.

2.2. XIII-XV asrlar adabiyotida Xusrav timsoli.

3-bob: ”Farhod va shirin” dostonida Xusrav timsolining g’oyaviy maqsadi va badiiyati.

3.1. Alisher Navoiyning ”Farhod va Shirin” dostonida salaflar va ularning asarlariga munosabat.

3.2. ”Farhod va Shirin” dostonida Xusrav timsoli.

III. Xulosa.

IV. Foydalanilgan adabiyotlar.

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Adabiyot inson ma'naviy kamolotining asosiy omillaridan biridir. Asarlar davomida buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho ma'naviy durdonalar, ularda yashiringan yuksak insoniy qadriyatlar bugungi milliy istiqlol mafkurasining ham birlamchi manbalari bo'lib xizmat qilmoqda. Ularni har tomonlama o'rganish, ommaviylashtirish barkamol avlodni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilayotgan bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu borada, ayniqsa, "avliyolar avliyosi, mutafakkirlar mutafakkiri va shoirlar sultoni" bo'lgan Alisher Navoiyning jahon adabiyotini boyitgan, bezagan o'lmas asarlari o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Zero, "Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy sha'nu shuhratini dunyoga tarannum qilgan so'z san'atkoridir..."¹

Alisher Navoiy hayoti va adabiy merosi bir necha asrlar davomida turli millat vakillari bo'lgan adabiyotshunos, sharqshunos olimlar tomonidan tadqiq va tahlil etilmoqda. Shu jumladan, Alisher Navoiy asarlarini undan oldin yashagan forsiyzabon va turkiyzabon shoirlar adabiy merosi bilan qiyosan o'rganish, an'ana va izdoshlik masalalarini yoritishga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Bular qatorida Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini shu mavzudagi asarlar bilan qiyosan o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega.

Insoniyat tarixida o'ziga xos iz qoldirgan Eron sosoniylari sulolasining oxirgi yirik namoyandalaridan biri Xusrav II Parviz haqidagi rivoyatlar juda qadimdan xalq og'zaki ijodida, solnoma va tarixiy asarlarda, ayrim asarlar tarkibidagi kichik hikoyatlarda keng tarqalib keldi. XII asrdan boshlab esa «Xusrav va Shirin», «Shirin va Xusrav», «Farhod va Shirin», «Farhodnoma» kabi nomlar bilan dostonlar maydoniga kela boshladi.

¹ Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent, 2008-yil. 47-bet.

Taniqli olim G.Y.Alievning ma'lumot berishicha, adabiyotshunoslikda ushbu mavzuda yozilgan oltmishdan ortiq dostonlar aniqlangan [6. 163].² Ularni o'rganish va qiyoslashga doir jahon adabiyotshunosligida ko'plab ilmiy-tanqidiy asarlar, monografiyalar yozilgan. Biroq adabiyotga sinfiy munosabat hukmron bo'lgan XX asrda hatto ijobiy qahramon sifatida yaratilgan hukmron tabaqa vakillariga nisbatan ham sub'yektiv tanqidiy yondashish, oldindan belgilab olingan mezonlarga sun'iy tarzda moslashtirish holatlari kuzatiladi. Bunday sharoitda fors-tojik va turkiy adabiyotning eng murakkab timsollaridan biri bo'lgan Xusrav, xususan, uning Navoiy tomonidan yaratilgan timsoli haqida biryoqlama talqinlarning hukm surishi tabiiydir.

Shundan kelib chiqqan holda, Alisher Navoiy ijodi, aniqrog'i, uning "Farhod va Shirin" dostonidagi Xusrav timsolini salafklarining asarlari bilan qiyosan o'rganish navoiyshunoslikning muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Bu, avvalambor Alisher Navoiy asarlarining mazmun va g'oyaviy mundariyasi, badiiy barkamolligi haqidagi tasavvurlarni boyitish, Navoiy talqinidagi "salbiy obraz" tushunchasini teranroq tasavvur qilish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, Sharq adabiyotining muhim jihatlaridan biri nazira va badiiy topilma, an'ana va o'ziga xoslik tamoyillari haqida ilmiy mulohaza yuritish imkonini beradi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. XX asr navoiyshunosligining poydevorini qo'ygan olimlardan biri Y.E.Bertels o'zining "Nizomiy" va "Navoiy" monografiyalarida "Xusrav va Shirin" mavzusida yozilgan eng muhim asarlarni tavsiflar ekan Xusrav timsolining tarixiy ildizlari va adabiyotga kirib kelish jarayonlari haqida ham muhim ma'lumotlarni keltiradi. G.Y.Aliev "Sharq xalqlari adabiyotida Xusrav va Shirin afsonasi" [6] nomli monografiyasida Xusrav va Shirin sujetining Nizomiyga qadar va undan keyin turli xalqlar adabiyotida ishlanishi masalasini alohida tadqiq etdi. Biroq uning tadqiqotlarida asosan fors-tojik tilida bitilgan dostonlarga e'tibor qaratilgan edi. O'tgan asrning 60-yillarida ikki qardosh xalq adabiyotshunosligining vakillari G'.Begdeli va S.Erkinov shu

² Katta qavs ichidagi raqamlar manbaning adabiyotlar ro'yxatidagi tartib raqamini ifodalaydi. Kitobning muayyan sahifasi havola etilganda sahifa raqami nuqtadan keyin ko'rsatiladi.

mavzuda tadqiqot olib borib monografiyalarini nashr ettirdilar [9, 34]. Agar G'.Begdelining tadqiqotida Xusrav va Shirin timsollari poetikasiga urg'u berilgan bo'lsa, S.Erkinov "Navoiy «Farhod va Shirin»i va uning qiyosiy tahlili" monografiyasida ilk marotaba Alisher Navoiy qalamiga mansub bo'lgan dostonning qiyosiy tahlilini yaratdi.

Shuningdek, A.Haitmetov "Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan" [39], A.P.Qayumov "Farhod va Shirin" sirlari [37], A.Abdug'afurov [5], B.Valixo'jayev [14, 15, 16], T.Jalolov [18] va boshqa ko'plab olimlarning ilmiy maqola, risola va monografiyalarida Xusrav va Farhod, Xusrav va Shirin obrazlari, ularning o'zaro munosabatlari haqida fikr-mulohazalar bildirildi. Biroq aksariyat tadqiqotlarda Navoiy yaratgan Xusravni o'ta salbiy obraz sifatida bo'rttirib talqin etish, sinfiy qarashlar uchun o'ziga xos shior sifatida qo'llash kuzatiladi. Xususan uni "makkor va zolim, qo'rqqoq, shafqatsiz va qonxo'r shoh" [10. 238] yoki "Firdavsiy va Nizomiyda ideal hukmdor bo'lgan Xusrav Navoiyda tamoman salbiy obraz sifatida gavdalanadi" [40] kabi mulohazalar, Navoiy "Ulusqa irs birla hukmron ul, atodin to ato xusravnishon ul" deb tanishtirilgan obrazni "Dostonda zolim va makkor Xusrav Parvez paydo bo'ladi" deya tanishtirish [37. 100] tendensiyalari ustunlik qiladi. Vaholanki, Nizomiy Ganjaviy dostonida ham Xusravning "ideal" hukmdor bo'lmaganligi Y.E.Bertels, N.Mallayev S.Erkinov tadqiqotlarida qayd etilgan. Binobarin, mazkur masalalarni bir tomondan adabiyotga yangicha xolis munosabat nuqtai nazaridan qayta o'rganish ehtiyoji, ikkinchi tomondan bevosita Navoiy yaratgan matndan kelib chiqqan holda sharhlash zarurati kun tartibiga chiqadi.

Mavzuning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Bugungi kunda adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning istiqbol rejasini mumtoz adabiyotimizning jahon adabiy jarayoni tarixi va taraqqiyotidagi mavqei, mumtoz asarlarimizning mavzu va g'oyalar ko'lami, badiiy barkamolligini ilmiy-nazariy jihatdan xolisona tadqiq etish belgilab beradi. Shundan kelib chiqqan holda, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti o'zbek adabiyoti tarixi kafedrasi 2011-2015- yillar uchun "Alisher

Navoiy ijodi va adabiy ta'sir masalasi" mavzusini tanlagan bo'lib, mazkur tadqiqot ushbu keng qamrovli muammo bilan bog'liq holda Alisher Navoiy ijodining xamsanavis salafllari bilan ijodiy munosabati masalasini yoritishga qaratilgan.

Bitiruv ishining maqsad vavazifalari. Ishning asosiy maqsadi Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonidagi Xusrav timsolini adabiyotga yangicha xolis munosabat nuqtai nazaridan bevosita Navoiy yaratgan matndan kelib chiqqan holda o'rganish, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va boshqa forziy zabon shoirlarning asarlaridagi Xusrav timsoli bilan qiyosiy tadqiq etishdir.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan:

- Xusrav timsolining tarixiy va afsonaviy ildizlari hamda adabiyotga kirib kelish, takomillashish jarayonlari yoritilgan ilmiy adabiyotlarni tavsif va tahlil etish, umumlashtirish;
- Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviyning Xusrav va Shirin haqidagi dostonlari tarkibidagi Xusrav timsolini o'rganish;
- Alisher Navoiyning tarixiy Xusravga munosabati haqida "Tarixi muluki Ajam" asari asosida aniq tasavvur hosil qilish;
- "Farhod va Shirin" dostonidagi Xusrav timsolini qiyosiy-tarixiy va ilmiy sharh metodlari asosida tadqiq va tahlil etish;

Bitiruv ishining obyekti va manbalari. Tadqiqotning asosiy obyekti Xusrav va Shirin yoki Farhod va Shirin mavzusida yozilgan dostonlar tarkibidagi Xusrav timsolidir.

Malakaviy bitiruv ishini bajarishda Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni [40, 43]³, Nizomiy Ganjaviyning «Xusrav va Shirin» [48], Amir Xusrav Dehlaviyning «Shirin va Xusrav» [47], Qutb Xorazmiyning «Xusrav va Shirin» [50] dostonlarining tanqidiy matnlari asosiy manba vazifasini o'tadi. Tadqiqotda, shuningdek, ilmiy manba sifatida E.E.Bertels [10, 11, 12], G.Y.Aliev [6],

³ Katta qavs ichidagi raqamlar manbaning adabiyotlar ro'yxatidagi tartib raqamini ifodalaydi. Kitobning muayyan sahifasi havola etilganda sahifa raqami nuqtadan keyin ko'rsatiladi.

G'.Begdeli [9], S.Erkinov [34], A.Qayumov [37], N.Komilov [19, 20], S.Tohirov [30, 31] kabilarning ilmiy ishlaridan o'rni bilan foydalanildi.

Bitiruv ishining metodologiyasi va metodi. Milliy istiqlol mafkurasi hamda yurtboshimizning milliy mafkura va madaniyatga doir dasturiy ko'rsatmalari, gumanitar sohalar va umuman ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlariga oid qarashlari ushbu bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi. Adabiyotshunoslik sohasida fundamental tadqiqotlar yaratgan Y.E.Bertels, A.Hayitmetov, B.Valixo'jayev, A.Qayumov, R.Orzibekov, I.Haqqulov, M.Muhiddinov, D.Salohiy kabi olimlarning ilmiy ishlaridagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Mavzuni izchil va atroflicha yoritish maqsadida ilmiy bilishga asoslangan qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, ilmiy tavsif va sharh metodlaridan foydalanildi.

Ishning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida o'rganilgan masalalar va manbalarga adabiyotshunoslikda ko'p marotaba murojaat etilgan bo'lsa-da, Navoiy dostonidagi Xusrav obrazining o'zi qiyosan tadqiq etilmagan. Bu esa ishning amaliy ahamiyatini belgilaydigan dastlabki omillardandir. Alisher Navoiy dostoni mamlakatimizda deyarli barcha bosqichlardagi "Adabiyot" fani dasturlariga kiritilgan. Binobarin, bitiruv ishining natijalari, materiallari, unda bildirilgan fikr-mulohaza va xulosalar Akademik litsey va KH kolejlari hamda oiliy ta'lim bakalavriyat bosqichining "Filologiya va tillarni o'qitish" yo'nalishi o'quv dasturlariga kiritilgan "Adabiyot", "O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish davri adabiyoti tarixi" fanlari yuzasidan yaratiladigan o'quv adabiyotlarini yanada boyitish, o'qitish usullarini takomillashtirish imkonini berishi mumkin.

Ushbu tadqiqot ishi kelajakda Alisher Navoiy adabiy merosini xamsanavis shoir va mutafakkirlar ijodi bilan qiyosan tadqiq va tahlil qilishda ilmiy manba vazifasini o'tashi shubhasiz.

Bitiruv ishning tuzilishi va hajmi. Malakaviy bitiruv ishi Kirish (Ishning umumiy tavsifi), jami oltita faslni o'z ichiga oluvchi uchta asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bolib, umumiy hajmi 60 sahifadan iborat.

1-BOB: XUSRAV PARVEZ TARIXIY SHAXS VA BADIY TIMSOL SIFATIDA

1.1. Xusrav timsolining tarixiy ildizlari. Milliy istiqlol tufayli xalqimizning azaliy orzulari ro'yobga chiqdi. Buning natijasida buyuk ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratigan madaniy, ma'naviy va adabiy merosimizga yangicha, xolis nigoh tashlash imkoni tug'ildi. Xususan, "avliyolar avliyosi, mutafakkirlar mutafakkiri va shoirlar sultoni" bo'lgan buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy yaratgan bebaho xazinalar, yuksak milliy va umuminsoniy qadriyatlar qomusi bo'lgan asarlarni yanada izchilroq, teranroq o'tganish, ularni jahon adabiyotining durdona asarlari bilan qiyoslash borasida jiddiy yutuqlarga erishilmoqda. Xususan, Alisher Navoiy ijodining undan oldin yashagan Sharqning buyuk mutafakkirlari, forsiyzabon va turkiyzabon shoirlar adabiy merosi bilan munosabati masalasida bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Bular qatorida Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini shu mavzudagi asarlar bilan qiyosan o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega.

XX asr navoiyshunosligining poydevorini qo'ygan olimlardan biri Y.E.Bertels o'zining "Nizomiy" va "Navoiy" monografiyalarida "Xusrav va Shirin" mavzusida yozilgan eng muhim asarlarni tavsiflar ekan Xusrav timsolining tarixiy ildizlari va adabiyotga kirib kelish jarayonlari haqida ham muhim ma'lumotlarni keltiradi.

Yana bir rus olimi G.Y.Aliev "Sharq xalqlari adabiyotida Xusrav va Shirin afsonasi" [6] hamda "Sharq xalqlari adabiyotida Nizomiyning mavzu va sujetlari"⁴ monografiyalarida Xusrav va Shirin sujetining Nizomiyga qadar va undan keyin turli xalqlar adabiyotida ishlanishi masalasini alohida tadqiq etdi. Biroq uning tadqiqotlarida asosan fors-tojik tilida bitilgan dostonlarga e'tibor qaratilgan edi. O'tgan asrning 60-yillarida ozarbayjon olimi G'.Begdeli va o'zbek adabiyotshunosi S.Erkinov parallel tarzda shu mavzuda tadqiqot olib borib, deyarli

⁴ Алиев Г.Ю. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. – М.: Изд. Восточной литературы, 1985.

bir vaqtda doktorlik dissertatsiyasini yoqladi hamda monografiyalarini nashr ettirdi.⁵ Agar G'.Begdelining tadqiqotida Xusrav va Shirin timsollari poetikasiga urg'u berilgan bo'lsa, S.Erkinov "Navoiy «Farhod va Shirin»i va uning qiyosiy tahlili" monografiyasida ilk marotaba Alisher Navoiy qalamiga mansub bo'lgan dostonning qiyosiy tahlilini yaratdi.

Shuningdek, A.Haitmetov "Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan",⁶ A.P.Qayumov "Farhod va Shirin" sirlari, A.Abdug'afurov, B.Valixo'jayev, T.Jalolov va boshqa ko'plab olimlarning ilmiy maqola, risola va monografiyalarida Xusrav va Farhod munozarasi haqida fikr-mulohazalar bildirildi. Biroq mazkur tadqiqotlarning barchasi sobiq ittifoq davrida yaratilgan bo'lib, ularda u yoki bu darajada davr mafkurasining ta'siri seziladi. Ularda Xusravni o'ta salbiy obraz sifatida bo'rttirib talqin etish, sinfiy qarashlar uchun o'ziga xos shior sifatida qo'llash kuzatiladi. Y.E.Bertels Navoiydagi Xusravni "makkor va zolim, qo'rqq, shafqatsiz va qonxo'r shoh» [10. 238] deb ta'riflasa, A.Qayumov obrazni o'quvchiga "Dostonda zolim va makkor Xusrav Parvez paydo bo'ladi" deya tanishtiradi [37. 100]. Ba'zi manbalarda "Firdavsiy va Nizomiyda ideal hukmdor bo'lgan Xusrav Navoiyda tamoman salbiy obraz sifatida gavdalanadi" kabi fikrlarni ham uchratamiz. Vaholanki, Nizomiy Ganjaviy dostonida ham Xusravning "ideal" hukmdor bo'lmaganligi bir qator olimlar, xususan, Y.E.Bertelsning "Nizomiy" monografiyasida qayd etilgan edi. Yirik olim va pedagog N.Mallayevning fikriga ko'ra "Bu obraz qiyofasida biz ikki Xusravni: ishqda beqaror, ishratparast va zolim Xusravni, sadoqatli oshiq va adolatli podsho bo'lgan Xusravni ko'ramiz. Ikki Xusrav o'rtasida uzoq va qattiq kurash boradi, Uning dam salbiy tomonlari, dam ijobiy tomonlari ustun chiqadi [21.243].

Qolaversa, Alisher Navoiyning o'zi ham Xusravga nisbatan "zolim" yoki "zulm" so'zini faqat bir marta ("Chu Xusrav zulmi haddin oshmish erdi...") ishlatgan. U o'quvchiga Xusravni quyidagicha tanishtiradi:

⁵ Begdeli G'. Sherg edebiyatinda «Xusrav va Shirin» mo'vzusu. – Baki: Elm, 1970; ErkinovS. Navoiy «Farhod va Shirin»i va uning qiyosiy tahlili. -Toshkent: Fan, 1971.

⁶ Hayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. – T.: Fan, 1970. 280-bet.

Ulusqa irs birla hukmron ul,
Atodin to ato xusravnishon ul.

Istiqloldan keyin Navoiyning barcha asarlari kabi “Farhod va Shirin” dostonini ham tasavvufiy g’oyalar asosida tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilgan bo’lib, bu boradagi ilk tadqiqotlardan biri bo’lgan N.Komilovning “Suqrot – komil inson timsoli” [19, 20] nomli maqolasi, ayniqsa, adabiyotshunoslikda jiddiy hodisa bo’ldi. N.Komilov dostonning shu xususiyatiga e’tibor qaratib uning maqsadi «ilohiy ishq» «dardini kuylash», «Farhod esa ana shu ilohiy ishqqa muftalo solikdir» deb yozadi. Shirin esa «Farhodning majoziy ishq uchun mazhar»dir [19, 238]. Olim «Farhod va Shirin» dostonini tasavvuf yo’liga kirgan solikning riyozat chekib tariqat bosqichlarini bosib o’tishi va ilohiy ishq, vahdat ul-vujudga erishuvining romantik tarzda badiiy ifodalanishi deya baholaydi.

Alisher Navoiyning u yoki bu timsolida yashiringan ma’rifat va g’oyalarni to’laroq ilg’ab olish uchun shu obrazlarning tarixiy va badiiy ildizlari haqida u bilan bog’liq adabiy an’analar haqida to’liq tasavvurga ega bo’lish lozim bo’ladi. Shularni inobatga olgan holda, dastlab Xusrav timsolining tarixiy va badiiy ildizlari haqida mavjum ma’lumotlarni muxtasar tarzda keltirish lozim ko’rildi.

Sosoniylar sulolasining oxirgi yirik hukmdorlaridan biri bo’lgan Xusrav II Parvez va uning ma’shuqasi Shirin haqidagi rivoyatlar juda qadimdan xalq og’zaki ijodida, solnoma va tarixiy asarlarda, ayrim asarlar tarkibidagi kichik hikoyatlarda keng tarqalib keldi.

X-XI asarlarga kelib Eron solnomalari va adabiyotida mashhur va fojiaiy taqdirga ega bo’lgan buyuk hukmdor hamda sohibjamol, yuksak aql-zakovatli, vafodor malika Shirin haqidagi rivoyatlarga, g’ayritabiiy kuch-qudratga ega bo’lgan hunarmand, o’z ishq yo’lida jonini fido qilgan oshiq Farhod haqidagi rivoyatlar ham kelib qo’shildi. Natijada, o’zining jozibadorligi, murakkabligi bilan jahon adabiy an’analaridagi eng go’zal ishqiy rivoyatlardan biriga aylandi.

Anushervoni odil nomi bilan mashhur bo'lgan Xusrav I Anushervonning o'g'li Hurmuzning vafotidan keyin 590-yilda Eron taxtiga Xusrav Parvez o'tirdi va 38 (Alisher Navoiyning yozishicha 30) yil hukmronlik qildi.

Hurmuzning o'limidan so'ng lashkarboshi Bahrom Cho'bina isyoni tufayli toju taxtdan mahrum bo'lgan Parvez Rum qaysari Mavrikiy yordami bilan otasining taxtiga o'tirishga muvaffaq bo'lib, tez orada kata harbiy qudratga ega bo'ldi va ko'pgina shaharlarni, shu jumladan, Iyerussalimni bosib oldi. Ammo shunday kata qudratga ega bo'lgan hukmdor 628-yilda o'z o'g'li Sheruya tomonidan o'ldirildi.

Xusrav obrazining adabiyotga kirib kelishida uning hukmronligidan ham ko'ra ma'shuqasi, nihoyatda go'zal husn va yuksak aql-zakovatga ega bo'lgan Shirin bilan bo'lgan ishqiy kechinma va sarguzashtlari kata ta'sir ko'rsatdi.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, Eron shohi Xusrav va uning sevikli malikasi (kanizagi) Shirin haqida dastlabki tarixiy ma'lumotlar Vizantiyalik tarixchi Feofilakt Simokattaning «Tarix» kitobida uchraydi. Simokatta Shirinni nasroniy diniga mansub bo'lgan rum qizi sifatida tanishtiradi [34. 23]. Anonim (muallifi noma'lum) suriya solnomasida Shirin oromiy xalqlarga mansub («arameyanka») deb ko'rsatiladi. Biroq Y.E.Bertelsning qayd etishicha bu so'zni «armyanka» (arman qizi) tarzida ham o'qish mumkin ekan. Solnomada Xusrav haqida ma'lumot berilib, uning nasroniy diniga mansub bo'lgan ikki xotini –Shirin va rumlik Maryam» bo'lganligi qayd etiladi. VII asr arman tarixchisi Sebeosning «Sebeos tarixi» kitobida Xusrav Parvez va Shirin haqida hikoya qiluvchi maxsus fasl mavjud bo'lib, unda Shirinning Sosoniylar davlatiga qarashli bo'lgan Huziston viloyatidan bo'lganligi aytilgan. Umuman, «Xusrav va Shirin» haqidagi manba va tadqiqotlarda Xusrav va uning nasroniy diniga mansub bo'lgan ma'shuqasi Shirin (Sira) rumlik, arman, oromiy yoki eron xalqlariga mansub degan qarashlar mavjud.

Sharqda yaratilgan ilmiy va badiiy manbalarda IX asrning oxirlaridan boshlab Xusrav haqida ma'lumotlar uchraydi.

Muallifi noma'lum bo'lgan «Xudoyнома» va uning ko'plab tarjimalarida (xususan, Hamza Isfahoniyni «Hukmdorlar va nabiyalar tarixi» asarida),

Al-Johizning «Kitob ul-mahosin val-ezdot» («Go'zal xislatlar va uning aksi») nomli kitobida, «Tarixi Tabariy» va uning tarjimai bo'lgan Bal'amiyning asarida Xusrav va Shirin haqidagi rivoyatlar bor.

Tabariy Xusrav saltanati haqida yozar ekan, shunday deydi: «Xusrav xalqqa shubha bilan qarar edi. Shohga nomunosib xatti-harakatlari bilan kishilarni kamsitardi. Xusravni ko'pchilikning nafratiga duchor qilgan omillar nimada? Bu haqda Sheruya tilidan quyidagilar aytiladi: Sen bir umrga zindonga tashlagan mahbuslarga, ularning qashshoqlik, ochlik, vatanlaridan, bola-chaqalaridan uzoqlashib ketganliklari to'g'risidagi shikoyatlariga bema'nilarcha javob qilding. Erlari, bola-chaqalari bor ayollarni sevmasang ham senga yoqqani uchun olib kelding, ularni majburan huzuringda tutib turding. Qo'l ostingdagilardan yer jarimasi olishda shafqatsizlik ko'rsatding, qattiqqo'llilik va dahshat bilan ularni xarob qilding. Tang ahvolga tushib qolgan chog'ingda senga bosh-pana bergan, seni dushmanlaring hujumidan himoya qilgan, o'z qiziga uylantirib obro'yingni ko'targan Rum qaysari Mavrikiyga nisbatan munofiqlik ko'rsatding Uning iltimoslarini yerda qoldirib, o'zingga ham vatandoshlaringga ham kerak bo'lmagan yog'och butni qaytarib bermading.⁷ Seni ana shu gunohlaring uchun xudo jazoladi» [34. 196].

Bal'amiyning asarida birinchi marta Farhod nomi tilga olingan: «Shirin ishqida Besutunni qo'porib tashlar ediki, Farhod parchalagan toshlarni o'nta, balki yuzta pahlavon ham ko'tara olmas edi. Bu toshlar hozir ham bor». Y.E.Bertels buni keyinchalik qo'shilgan ma'lumotlar deb hisoblaydi [11. 216].

X asr arab tarixchilaridan bo'lgan Shahobiddin Abu Abdullo Yoqutning «Mu'jam ul-buldon» asarlarida kanal qazish bilan bog'liq quyidagi voqea bayon etiladi:

⁷ Bu o'rinda Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da tilga olgan «ganji bodovard» (shamol keltirgan xazina) nazarda tutilgan bo'lsa kerak. Vizantiya shohlari (akosir)ning ulkan xazinasi rivoyatlarga ko'ra bir shahardan ikkinchi shaharga dengiz yo'li bilan o'tkazilayotganda qattiq shamol kemalarni Madoyin sohiliga surib kelgan va ular Xusravning mulkiga aylangan. Ular orasida oltin va qimmatbaho toshlardan ishlangan ma'budlar haykallari ham bo'lgan. Xusrav uni qaytarmaganligi uchun Vizantiya bilan o'rtada nizo kelib chiqqan. Navoiyning ma'lumot berishicha bu haykallar Eron malikasi Turondo'xt (Turon qizi) davrida qaytarilgan.

“Eronliklarning aytishlaricha, Parvezning hayotdan uch nasibasi – xotini Shirin, qo’shiqchisi Borbad, shabdiz nomli oti, shu bilan birga Qasri Shirin deb nom olib qolgan qasri bor edi... Xusrav ikki tosh yerga o’ziga bog’ qilishni istab bu ishni ming kishiga yuklagan va ularni har kuni non, go’sht va may bilan ta’minlab turgan. Ming kishining yetti yillik mehnati bilan qurilish nihoyasiga yetadi. Shunda bu xabarni shohga yetkazishni Borbaddan iltimos qiladilar. Borbad “Ov bo’stoni” nomi bilan qo’shiq to’qib, uni kuylab, shohni bog’ning bitganligidan ogoh etadi. Bu xabardan shoh nihoyatda xursand bo’lib, ishda qatnashganlarni mukofotlaydi. Mamnun shoh mastlik vaqtida Shiringa murojaat qilib, uning istagini bilmoqchi bo’ladi. Shunda Shirin shohga: shu bog’ o’rtasida ikki tosh ariq qazdirsang, ularda sut oqib tursa. Ariqlar o’rtasida esa qasr barpo etilsa, deb aytadi. Podsho buni qabul qiladi. Lekin u nihoyatda mast bo’lgani uchun va’dasini esdan chiqarib yuboradi. Shirin Borbaddan ariq haqidagi gapni shohga eslatib qo’yishni iltimos qiladi. Borbad Shirin istagini bajo keltirib, qo’shiq aytish davomida shohning va’dasini yodga oladi. Podsho unutgan va’dasini birdan xotirga olib, darhol ariq va qasrni qurib bitkazish to’g’risida farmon beradi” [34. 27].

Xusrav va Shirin haqidagi dastlabki manbalardan farqli o’laroq arab tarixchilarining asarlarida bu shaxslarga nisbatan ayrim salbiy chizgilar paydo bo’ldi. Jumladan, Xusrav Shirinning kuchli ta’siriga tushib qolganligi, Shirinning dabdabaga moyilligi shular jumlasidan. Bu holat keyingi davrlarda yaratilgan ayrim badiiy va ilmiy asarlarda ham davom etdi, hatto rivojlantirildi. Jumladan, o’rta asrlarning yirik mutafakkirlaridan biri, saljuqiylar davlatining yuksalishida ulkan xizmat qilgan, Umar Xayyom kabi shoir va mutafakkirga homiylik va g’amxo’rlik qilgan Nizomulmulk o’zining “Siyosatnoma” asarida hukmdorning ayollarga munosabati haqida maxsus fasl ajratib, Iskandar va Xusrav timsollarini bir-biriga qarama-qarshi qo’yadi. U Xusrav haqida shunday qisqagina hikoyat keltiradi: “(Bu haqda) Xusrav Shirin va afsonaviy Farhod haqida hikoyat ham bor. Go’yo Xusrav Shiringa shu darajada muhabbat bog’lagan ediki, unga ixtiyorini berib qo’ydi. U nima desa shuni qilar edi. Bundan Shirin quvvatlandi (o’zidan ketti) va Xusravdek bir shoh huzurida turib Farhodga ko’ngil qo’ydi.

Demak Xusrav Parvez haqidagi tarixiy manbalar va ma'lumotlar davr o'tishi bilan muayyan o'zgarishlarga uchradi. Agar dastlabki solnomalarda Xusrav buyuk hukmdor, har qanday kamchiliklardan xoli bo'lgan mukammal shaxs sifatida tasvirlangan bo'lsa, keyinchalik, uning shaxsiyatida ayrim nuqsonlar ham namoyon bo'la boshladi.

Xo'sh tarixiy Xusravga Alisher Navoiyning munosabati qanday edi. Bu haqda uning «Tarixi muluki Ajam» asari asosida muayyan xulosalar chiqarishimiz mumkin bo'ladi.

Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da Xurmuz binni Anushervon haqida ma'lumot berib, u bilan Bahrom cho'bin o'rtasidagi nizo haqida eslatadi: «Bahrom cho'bin anga yog'iqli (dushmanga aylandi), dag'i Parvez otig'a va aning navkarligiga o'zin mansub qildi. G'arazi bu tadbir edikim, Xurmuz o'g'lidin badgumon bo'lub, arodin ko'targay va Bahrom osonlig' bila Hurmuzni daf' qilib, podsholig'ini olg'ay. Va royi muvofiq tushti. Hurmuz Parvez qasdig'a mashg'ul bo'lub, Parvez vahmdin qochib, Arman viloyatig'a bordi va Shiring'a oshiq bo'ldi» [42. 245].

Alisher Navoiy Xusrav tarixini muxtasar bayon etishda Tabariyning tarix kitobi hamda Firdavsiy «Shohnoma»sidan foydalanganligi seziladi.

«Parvez Madoyin taxtig'a o'lturub, ko'p mamolikni hiytayi tasarrufig'a kiyurdi. Va maknat va shavkati bir yerga yettikim, andin burung'i saloting'a muyassar bo'lmaydur erdi» [42. 247].

Navoiy tarixlarda ta'rif va tavsif etiladigan uning afsonaviy ulkan taxti Taqdis, boshi uzra oltin zanjirlarda ilib qo'yilgan oltmish botmonlik toji, qimmatbaho toshlar terilgan ulkan majlislar maydoni, Shabdiz oti, qo'shiqchisi Borbad, «asrning a'lami» bo'lgan vaziri Buzurg Ummid, fil ot va tuyalari, «ganji bodovard» (shamol keltirgan xazina) kabilar haqida ma'lumot beradi. Shu bilan birga «Va Shirindek mahbubi bor erdikim, olamda aningdek husn-u latofat va jamol-u malohat hyech kimda yo'q erdi» [42. 248]. Navoiy tarixlardan izlab topgan eng muhim hodisa sifatida quyidagi ikki holatni qayd etadi: «Biri ulkim,

agarchi Shirindek olamda nodirasi bor erdi, vale Farhoddek ham olam ajubasi raqibi bor erdikim, ishq va niyoz atrofidin bovujudi Xusravdek podshoh ko'ngli Farhodqa mayl qilib, iltifot va tarahhum zohir qildi. Va ani bilib Xusrav rashkdin makr bila Farhod qatlig'a bois bo'ldi» [42. 249].

Ikkinchidan, u payg'ambar Muhammad (a.s.)ning islomga da'vat qilib yozgan muborak maktublarini yirtib, bu bilan o'zining va sulolasining inqiroziga sabab bo'ladi. Alisher Navoiy bu haqda shunday deydi: «... ul hazrat (Muhammad (a.s.))din va islom da'vatig'a noma bitib kishi yibordi. Va ul (Xusrav) bu muzaxrafot (soxta boylik va mavqye) g'ururidin ul hazrat muborak nomasin yirtti va itoat qilmadi. Va o'z mulk va davlatig'a qasd qildi. Va hazrat mo'jizasidin mulkiga zavol dorib, Sheruyaki aning o'g'li erdi ma'mur bo'ldi. Mungakim Farhodning begunoh qatlig'a atosini qasos qildi» [42. 250].

Demak Navoiy nazdida Xusrav ideal hukmdor ham zolim podshoh ham emas. U muayyan nuqsonlarga ega bolgan (takabbur, izzattalab, hissiyotni aqlidan ustun qo'yadigan) davlat arbobi. Navoiy uning “Farhodning begunoh qatlig'a” bois (!) bo'lganligini e'tirof etsa-da, bunda Shirinning “bovujudi Xusravdek podshoh, ko'ngli Farhodqa mayl” qilganligi ham sabab bo'lganligini oshkora bo'lmasa ham qayd etmoqda.

Bundan sezishimiz mumkinki, “Farhod va Shirin” dostonini yaratishda Navoiy tarixiy haqiqatni badiiy talqin etish yo'lidan boradi.

1.2. Xusrav timsolining badiiy adabiyotga kirib kelishi. Xusrav Parvezning dastlabki tarixiy-badiiy timsoli fors-tojik adabiyotining eng yirik vakillarida biri Abulqosim Firdavsiy tomonidan yaratildi. Firdavsiyning “Shohnoma”sida to'rt sulolaga mansub bo'lgan Eron shohlari qatorida Xusrav Parvez haqida ham alohida doston, aniqrog'i dostonlar keltirilgan. Xusrav sarguzashtlari “Shohnoma”da hajman eng katta sujetlardan biridir.

Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”si turkiy yoki o'zbek tiliga nasriy va she'riy usulda bir necha marotaba qisman tarjima qilingan. Biroq asarning to'liq tarjimasi hozirga qadar mavjud emas. “Shohnoma”ning 1984-yilda nashr ettirilgan tarjimasida Xusrav Parvez dostonining Sh.Shomammedov tomonidan o'zbek

tiliga tarjima qilingan qismi [44. 633-679] ham kiritilgan. Biroq bu kitobda “Xusrav Parvez podshohligi” dostonining bir qismi, aniqrog’i, Xusravning taxtga chiqishidan boshlab Bahrom Chubina bilan jangiga qadar bo’lgan voqealar kiritilgan. Binabarin, bu qismlar Xusrav shaxsiyati va timsoli haqida to’laonli tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi.

Firdavsiy dostonining 1966 yilda Tojikiston FA ilmiy xodimlari K.Ayniy, Z.Ahroriy, B.Sirus, A.Devonaqulov tomonidan tayyorlangan 9 jilddan iborat nashrida Xusrav Parvez sarguzashtlari sakkizinchi va to’qqizinchi jildlardan o’rin olgan.

Xurmuz shohligi bayon etilgan sakkizinchi jildda Xusravning tug’ilishi, bolalik va yigitlik davri tasvirlanadi. Firdavsiy Xusravning g’am-tashvishlardan uzoqda, aysh-ishratga berilgan, ovga o’ch bo’lganligini ta’kidlaydi:

Hame romishu bazmu may kor bud,
Ba yak hafta du ro’z bashkor bud. [45. 595].

Mazmuni: Ishi doimo aysh-ishrat, bazm va mayxo’rlik edi. Haftada ikki kun ovga chiqar edi.

Eron taxtini qo’lga kiritish payida bo’lgan sarkarda Bahrom Chubina Xurmuz bilan Xusrav o’rtasida nizo chiqarish maqsadida Xusrav nomiga tanga zarb etadi. Buning natijasida, Xurmuz o’z o’g’lidan shubhalana boshlaydi va uni qatl etishga farmon beradi. Bu haqda xabar topgan Xusrav Ozar yeriga qochadi. Rum Qaysari (Kisro), Sheroz va Kirmon hukmdorlari unga o’z yordamini taklif etadi. Buning natijasida, Xusrav ancha qudratli qo’shinga ega bo’ladi.

“Shohnoma”ning to’qqizinchi jildida Xusrav Parvez hukmronligi davri bilan bog’liq ikkita alohida doston o’rin olgan:

1. “Podshohii Xusravi Parvez” (“Xusrav Parvez podshohligi”) [46. 7-285].
2. “Dostoni Xusravi Parvez va Shirin” (“Xusrav Parvez va Shirin dostoni”) [46. 286-343].

Ikkala qism ham “Og’ozi doston” (Dostonning boshlanishi) deb nomlangan bob bilan boshlanaishi ularning alohida mustaqil asar ekanligini ko’rsatadi.

Xusrav haqidagi mazkur ilk doston o'rta asrlar Sharq adabiyotida keng tarqalgan sarguzasht doston va qissalarni eslatadi. Unda asosan Xusrav va Bahrom Chubina o'rtasidagi ziddiyat, Xusravning Eron taxtini qaytarish yo'lidagi kurashlari aks etadi. Uning Shirin bilan bog'liq sarguzashtlari Sharqda mashhur bo'lganligi, bu haqda ko'plab rivoyatlar tarqalganligini inobatga olib, Firdavsiy bu haqda alohida sujet chizig'iga ega bo'lgan doston yaratishga qaror qilgan.

Rus olimi Y.E.Bertels "Nizomiy" hamda "Navoiy" monografiyalarida "Xusrav va Shirin sujeti tarixi haqida ma'lumot berar ekan, Firdavsiy "Shohnoma"si haqida ham to'xtaladi. Olim Xusrav haqidagi ikkinchi doston "Xusrav Parvez va Shirin dostoni" sujetini muxtasar tarzda quyidagicha bayon etadi:

Xusrav Shiringa o'spirin yoshida uylangan. Ammo otasining vafotidan keyin kechgan isyonchi amaldorlar qarshiligini bostirgach, u taxtga o'tiradi hamda uni (Shirinni) o'zidan uzoqlashtiradi va oxir-oqibat uni unutadi. Bir kuni Xusrav ovga bormoqchi bo'ladi. Voqeadan xabar topgan Shirin o'zining eng yaxshi kiyimlarini kiyib, tomga chiqadi va Xusrav yonidan o'tayotganda otini aytib chaqiradi. Shunda u o'zining xayolidan faromush bo'lgan muhabbatni eslaydi va Shirinni Eronning malikasi etmoqchi bo'ladi. Bunday qaror eronlik amaldorlarga kuchli qarshilik hissini uyg'otadi. Xusrav huzuriga butun boshli vakillar guruhi keladi va Shirinning past tabaqadan ekanligiga ishora qilib, uni bu harakat oqibatlaridan ogohlantiradilar [10. 231].

Xusrav amaldorlarga birdan javob bermaydi, ularga ertasi ertalab kelishni buyuradi. (Ertasi ertalab) amaldorlar va ruhoniylar kelganda xizmatkorlar ularga bir oltin jomda qaynab turgan qonni uzatadi. Barcha nafrat bilan yuzlarini burishadi. Bir oz fursat o'tgach o'sha jomni yana olib kelishadi. Biroq bu safar u yuvilgan va xushbo'y may bilan to'ldirilgan edi. Xusrav o'z ramzlarini izohlaydi. Bu jom – Shirin, -deydi u. – U men tomondan xo'rlangan holda shaharda yashaganda zahar (qon) to'la jom misoli eda. Mening oldimga saroyga kelib, mening xotinim bo'lgach, u may solingan jomga aylanadi. Amaldorlar o'z da'volaridan voz kechishadi va nikoh marosimi o'tkaziladi [11. 217].

Xusrav bungacha Vizantiya shohining qizi Maryamga ham uylangan edi. Shirin Xusravni rashk qilib, maryamni zaharlab o'ldiradi. Xusravning Maryamdan Shiruya ismli o'g'li bor edi. Bu qotillikdan keyin Xusrav Shiruya tomonidan dushmanlik harakatlari boshlanib ketishidan xavfsirab, uni saroylardan biriga qamab qo'yadi. Bu yerda u, garchi u podshohlik ne'matlari bilan ta'minlanib turgan bo'lsa-da, zindonda yashagan kabi yashaydi.

Xusrav sarguzashtlarining xotimasi, ya'ni taxtdan ag'darilib, saroy a'yonlarining talabi bilan o'g'li tomonidan qatl ettirilishi esa "Shohnoma"ning keyingi - "Shiruya podshohligi" dostoni tarkibida berilgan.

Xusravning boshqaruvidan norozi a'yonlar fitna uyushtiradilar va uning o'rniga Shiruyani taxtga o'tqazadilar. Natijada, Xusrav qochishga majbur bo'ladi va o'zining shahardan tashqaridagi bog'laridan birida yashirinadi. Ochlik uni bir bog'bonni qimmatbaho buyumlarini sotish va puliga oziq-ovqat keltirish uchun bozorga jo'natishga majbur qiladi. Shu buyumlarga qarab uning yashiringan joyini topib oladilar va poytaxtdagi qal'alardan birida qamab qo'yadilar. Shu orada Shiruya qal'aga qatil jo'natadi, shu tarzda otasini gumdon qiladi va Shiringa uylanmoqchi bo'ladi. Shirin uning hukmida bo'lgani bois o'z mulkiga to'liq egalik qilish huquqi berilsa, rozilik berishini aytadi.

Bunday huquq kafolatlangandan keyin Shirin barcha qullarni ozod qiladi, boyligini beva-bechoralarga tarqatadi. Keyin Xusravning qabriga kirib, zahar ichadi [10. 231].

S.Erkinov "Farhod va Shirin" dostonining qiyosiy tahlili haqidagi monografiyasida Firdavsiy yaratgan sujetga ham qisman murojaat etilgan. Biroq olim o'z tadqiqotlarida asosan Farhod va Sirin timsollariga e'tibor qaratganligi hamda butun monografiya "mehnat" g'oyasi bilan sug'orilganligi tufayli Firdavsiy dostoniga yetarli e'tibor qaratilmagan [34]. Zero unda Farhod timsoli ishtirok etmagan edi.

Firdavsiy dostoni, aniqrog'i, dostonlarida Xusrav Parvez sarguzashtlari ilk bora tugallangan, muayyan sujet va kompozitsion butunlik kasb etgan holda namoyon bo'ladi. Shahzoda, podshoh hamda shohlikdan ag'darilgan Xusrav

mazkur asarda o'zining barcha fazilat va illatlari, yutuq va kamchiliklari bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Muallif Xusrav timsoliga romantik tus berish, o'z ideallarini singdirishga ham uni oshiq sifatida talqin etishga ham intilmaydi.

Y.E. Bertelsning fikricha "... Firdavsiy asarining markazida Xusrav figuralari turadi. Firdavsiy sosoniylar sulolaviy xronikasini yorqin badiiy bo'yoqlarda she'riy yo'l bilan bayon etadi... (Biroq) U o'z oldiga ruhiyat muammosini qo'ymaydi" [11. 218]. Binobarin, Firdavsiy dostonida Xusravning shaxs sifatidagi xarakter belgilari to'liq ochilmagan va u hali to'laqonli badiiy obraz darajasiga ko'tarilmagan edi.

Adabiyotshunos S.Erkinovning ma'lumot berishicha [34. 24-26], Markaziy Osiyo va Kavkaz xalqlari folklorida ancha qadimdan mavjud bo'lgan Farhod obrazi X-XI asrlardan boshlab Xusrav va Shirin voqealariga kelib qo'shildi va ko'plab ijodkorlarni qalam tebratishga undagan, ularning dunyoqarashi va mahoratini namoyish etish uchun juda boy va qulay vosita bo'lgan Xusrav-Shirin-Farhod ziddiyati, uchburchagini yuzaga keltirdi. Bunga ko'proq yuqorida eslab o'tganimiz Bal'amiyning "Tarixi Tabariy" asaridagi ma'lumotlar sabab bo'lgan deb taxmin qilish mumkin.

Xusrav, Shirin va Farhod o'rtasidagi munosabatlar dastlab fors-tojik tilidagi she'riyatda aks eta boshladi. Biroq qayd etish lozimki, ushbu obrazlar o'rtasidagi ziddiyat, uning mohiyati va xususiyatlari turli ijodkorlar tomonidan turlicha talqin qilingan. X-XII asrlarda yashab ijod qilgan Adib Sobir Termiziy, Amir Abulhasan Og'adji, Qatron Tabreziy, Hoqoniy Shervoniy, So'zaniy Samarqandiy kabi ko'plab shoirlarning lirik she'rlarida, Faxriddin Gurgoniyning «Vis va Romin» dostonida, Saolibiyning «Shohnomai Saolibi» asarida Xusrav, Shirin va Farhod obrazlari tilga olinadi. Biroq bu obrazlarga munosabat keyingi an'analardan farq qiladi.

G'.Begdelining yuqorida tilga olingan monografiyasida Farhod timsolini xalq og'zaki ijodidan yozma adabiyotga olib kirgan ilk muallif sifatida Qatron Tabreziy qayd etiladi hamda uning she'riyatidan bir necha misollar keltiriladi:

Hosidi o' hamisha chun Farhod,
Nosih o' hamisha chun Shirin [9. 35].⁸

Mazmuni: *Hasad qiluvchi doimo Farhoddek, nasihatgo'y esa doim Shirinday bo'lsin.*

Hamesha shohi Shaddodi zi baxti xeshtan shod ast,
Ba mulk andar chu Parvez ast-u, batxohash chu Farhod ast [9. 35].

Mazmuni: *Shaddodiy shohi doimo o'z baxtidan shoddir. O'z mulkida u Parvez kabi, dushmanlari esa Farhoddekdir.*

To hadisi Xusrav-u Farhod boshad dar jahon,
O' ba soni Xusrav-u, dushman-sh chun Farhod bod.

Mazmuni: *Toki olamda Xusrav-u Farhod so'zi (hikoyasi) bor ekan, u (madh etilayotgan hukmdor) Xusravdek, dushmani esa Farhoddek bo'lsin.*

Qatron Tabreziyning bu misralarida Farhod shohning baxti, muhabbatiga hasad qiluvchi va o'zining shu hasadi tufayli iazob-uqubatlarga duchor bo'lgan kishi sifatida talqin etilgan.

Ayniqsa, Xoqoniy Shervoniy ijodida tez-tez bu obrazlarga ba'zan talmeh sifatida ba'zan esa to'g'ridan-to'g'ri murojaat etiladi. Xususan, uning «Madoyin xarobalari» degan qasidasida va ayrim to'rtliklarida Xusrav va Farhod nomlarini uchratish mumkin:

Ko'hkan dar ishq Shirin g'ayrate gar doshti,
Naqshi Shirinro bachashmi digaron nagzoshti.
Bud beg'ayratki, naqshi yorro bar sang kand,
Var ba lavhi siyna kandi surati pindoshti.

To'rtlikning mazmuni quyidagicha: *«Ko'hkan (Farhod) agar Shirin ishqida g'ayratli bo'lsa edi, buning suratini hammaga ko'z-ko'z qilmas edi.*

⁸ Matnlar arab grafikasida berilgan.

G'ayratsizligidan yorining suratini toshda qoldirdi. Aks holda, qalb taxtasida qoldirgan bo'lar edi».

Xoqoniyni fikriga ko'ra Farhod Shirin xayolini (suratini) qalbida emas, toshda qoldirdi va bu bilan uni odamlarga ko'z-ko'z qildi. Shu tufayli, ma'ni emas, surat oshig'i bo'lgan Farhod Shirin ishqiga loyiq bo'lolmadi.

Demak bu davr badiiy tafakkurida Farhod haqida to'laqonli tasavvur hali shakllanmagan, Xusravni ideal hukmdor deb hisoblovchi Eron solnomalaridagi an'analar davom etayotgan edi.

Yuqorida qayd qilingan Xusrav-Shirin-Farhod uchburchagi asosida dastlabki yirik doston yaratgan va boy an'anaga asos solgan ijodkor ozor mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Nizomiy Ganjaviy bo'lib, u «Panj Ganj»ning ikkinchi dostoni bo'lgan «Xusrav va Shirin»ni 1180 yilda yozib tugatdi.

Nizomiy Ganjaviy ilk marotaba Xusravni tom ma'nodagi badiiy obraz darajasiga ko'tardi hamda keyingi davrlar adabiyoti uchun asos vazifasini bajarib berdi. Nizomiy Ganjaviy yaratgan Xusrav timsoli hamda uning izdoshlari asarlarida mazkur obrazning yangi-yangi talqinlari, interpretatsiyalari malakaviy bitiruv ishining keyingi fasllarida tavsif va tahlil etiladi.

Bitiruv ishining birinchi bobida tahlil etilgan materiallar asosida quyidagi xulosalarni bildirish mumkin:

Xusrav Parvez insoniyat tarixida muayyan iz qoldirgan shaxslardan biri. Uning murakkab tarzda kechgan, sarguzashtlarga boy hayoti ayniqsa Shirin bilan bo'lgan munosabatlari uning shaxsiyatiga bo'lgan munosabat tarixiylikdan badiiylik tomon o'zgarib borishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Xusrav Parvez haqidagi tarixiy manbalar va ma'lumotlar davr o'tishi bilan muayyan o'zgarishlarga uchradi. Agar dastlabki solnomalarda Xusrav buyuk hukmdor, har qanday kamchiliklardan xoli bo'lgan mukammal shaxs sifatida tasvirlangan bo'lsa, keyinchalik, uning shaxsiyatida ayrim nuqsonlar ham namoyon bo'la boshladi.

Xusrav Parvezning dastlabki tarixiy-badiiy timsolini yaratgan Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”sida Xusrav sarguzashtlari hajman eng katta sujetlardan biridir. Unda Xusrav Parvez sarguzashtlari ilk bora tugallangan, muayyan sujet va kompozitsion butunlik kasb etgan holda namoyon bo’ladi. Shahzoda, podshoh hamda shohlikdan ag’darilgan Xusrav mazkur asarda o’zining barcha fazilat va illatlari, yutuq va kamchiliklari bilan birgalikda namoyon bo’ladi. Muallif Xusrav timsoliga romantik tus berish, o’z ideallarini singdirishga ham uni oshiq sifatida talqin etishga ham intilmaydi.

Alisher Navoiyning tarixiy Xusravga munosabati uning “Tarixi muluki Ajam” asarida aks etgan. Navoiy nazdida Xusrav ideal hukmdor ham zolim podshoh ham emas. U muayyan nuqsonlarga ega bolgan (takabbur, izzattalab, hissiyotni aql dan ustun qo’yadigan) davlat arbobi. Navoiy uning “Farhodning begunoh qatlig’a” bois bo’lganligini e’tirof etsa-da, bunda Shirinning “bovujudi Xusravdek podshoh, ko’ngli Farhodqa mayl” qilganligi ham sabab bo’lganligini qayd etadi.

2-BOB:**XII-XV ASRLAR ADABIYOTIDA XUSRAV TIMSOLINING
BADIY TAKOMILI**

2.1. Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonida Xusrav timsoli. Sharq adabiyotidagi ko'plab an'analarning yaratuvchisi, ijodkori bo'lgan ozar xalqining buyuk farzandi Nizomiy Ganjaviy Xusrav-Shirin-Farhod uchburchagi, Xusrav va Farhod ziddiyati asosida alohida doston yaratish an'anagasini ham boshlab berdi. Uning Iroq hukmdori Tug'ul II topshirig'i bilan 1180 yilda yozib tugatilgan «Xusrav va Shirin» dostoni «Panj Ganj» dostonlar turkumining ikkinchi qismi sanaladi.

Agar Nizomiyni ilk dostoni “Maxzan ul-asror” muayyan sujet asosida yozilmaganligi, turli ijtimoiy-falsafiy va axloqiy mavzulardagi maqolot va hikoyatlardan iborat ekanligini inobatga olsak, shoir alohida e'tibor qaratgan ilk mavzu aynan Xusrav Parvez sarguzashtlaridir. Bu o'z navbatida Nizomiyni Firdavsiy mavzulariga ilk murojaati ham edi.

Nizomiy Ganjaviy o'z dostonini yaratishda Xusrav haqidagi sosoniy solnomalar va tarixiy asarlardan tashqari turkiy va forsiy xalqlarning og'zaki ijodidan ham unumli foydalandi. Shu bilan birga u o'z dostonida Firdavsiy va uning «Shohnoma»si haqidav ham to'xtalib o'tadi:

Hakime k-in hikoyat sharh kardast,
Hadisi ishq az eshon tarh kardast.

Chu dar shast o' fitodash zindagoni,
Xadang aftodash az shasti javoni.

Naguftam har chi dono guft az og'oz,
Ki farax nest guftan guftaro boz.

Mazmuni: Bu hikoyatni sharhlagan donishmand undan ishq so'zini (hikmatini) olib tashladi. Uning yoshi oltmishga borib qolganligidan, yigitlik o'qi kamonini tark etgan edi. Donishmand aytgan so'zlarni men aytmadim. Zero aytilganni takrorlash maqtangulik ish emas.

Chindan ham Nizomiyni asari ko'p jihatlari bilan «Shohnoma»dagi Xusrav va Shirin dostonidan farq qiladi. Bularning eng asosiysi Farhod timsolining asar sujetiga olib kirilganligidir. Bu esa Nizomiyni «Shohnoma»dan tashqari boshqa manbalardan ham foydalanganligidan darak beradi. O'sha bizga noma'lum bo'lgan manbalarda Xusrav va Farhod ziddiyati aks etganmi, yo'qmi, aytish qiyin.

Firdavsiydan farqli o'laroq, Nizomiy Ganjaviy «Xusrav va Shirin» dostonida «ishq» tushunchasi, uning ijtimoiy, falsafiy va tasavvufiy mohiyati ta'rifi va talqiniga alohida e'tibor qaratadi. U doston muqaddimasida ishq ta'rifida shunday yozadi:

Zi so'zi ishq behtar dar jahon chist?

Ki be o' gul naxandid, abr nagrist.

Jahonda ishq taftidan yaxshiroq nima bor? Usiz na gul kuladi (ochiladi), na bulut yig'laydi (yomg'ir yog'adi).

Kase, k-az ishq xoli shud fusurdast,

Garash sad jon buvad, be ishq murdast.

Ishqdan xoli bo'lgan kishi umrini behuda o'tkazuvchidir. Yuzta joni bo'lsa ham, ishqsiz u o'likdir.

Baytlardan ma'lum bo'ladiki, «ishq» Nizomiy talqinida faqat ijtimoiy emas falsafiy mohiyat ham kasb etadi. Bunda faqat Xusravning Shiringa yoki Shirinning Xusravga munosabati emas, balki inson ko'nglining azaliy hamrohi bo'lgan yuksak tuyg'u, Navoiy ta'biridagi «pok mazhar»ni sevish orqali mahbubi haqiqiy jamolidan bahra olish haqida kuylanadi.

Nizomiy Eron solnomalari va adabiyotidagi Xusrav Parvezni buyuk hukmdor sifatida tasvirlash an'anasini saqlab qoladi va uning Shirin bilan bo'lgan munosabatiga asosiy e'tiborni qaratadi. Y.E.Bertelsning fikricha, Nizomiyning dostonida asosiy obraz Shirin bo'lib, u asar voqealarini rivojlantiruvchidir. Muallif mohirlik bilan erka, shaxsiyatparast, hayot qiyinchiliklaridan bexabar, boshqalarning ahvoli bilan qiziqmaydigan shahzodaning o'z ma'shuqasi ta'sirida insoniy kamolot sari ko'tarilib borishini tasvirlaydi.

Bo'lajak humdor sifatida tarbiyalanayotgan shahzoda Parvez bir kuni ovga chiqadi. Qandaydir bir qishloq yaqiniga borganda u chodir qurib bazm uyushtiradi. Qorong'i tushgach, o'sha qishloqdagi uylardan birida tunash uchun kiradi va yana bazmni davom ettiradi. Shu payt uning oti ipini uzib, uy egasining ekinzoriga kiradi va uni payhol etadi, Xusrav xizmatkorlaridan biri mast holda bir kishining uzumzoriga kirib hali yaxshi pishib yetilmagan uzumlardan uzadi. Ertasi ertalab Xusravning otasi Xurmuzga bo'lgan voqealarni yetkazishadi:

Gar in begonaye kardi na farzand,
Biburdi xonumonashro xudovand.

Zanad bar har rage fassod sad nesh,
Vale dastash bilarzad bar ragi xesh.

Mazmuni: Agar bu ishni o'z farzandi emas, begona kishi qilganda, podshoh uni xonumonidan ayirardi. Tabib minglab tomirlarga nesh uradi, biroq o'z tomiriga kelganda qo'li qaltiraydi.

Bunday kinoya shoh Xurmuzni g'azabga keltiradi. U Xusrav otining tuyog'ini kesishni, uzumzorga kirgan qulni uzumzor egasiga berishni, Xusravning tojini uy egasiga berishni, mutrib (sozanda)ning tirnog'ini kesish, changning torlarini uzish hamda Xusravni uy qamog'ida asrashni buyuradi. Shu kecha Xusravning tushiga bobosi Anushervoni Odil kirib unga taskin beradi hamda bo'lajak voqealar haqida bashorat qiladi.

Dostonning shungacha bo'lgan qismida Shirin timsoli ishtirok etmaydi. Bu qismlarni Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi syujetning dastlabki qismi, ya'ni Farhodning oynada Shirinni ko'rgunga qadar bo'lgan voqealar bilan qiyoslaganda ikki mutafakkir shoirning o'ziga xos uslubi namoyon bo'ladi. Navoiyning dostonida shahzoda Farhod har qanday illatlardan xoli, shaxs sifatida shakllangan bo'lsa, Xusravda hali buni ko'ra olmaymiz. U aksariyat yoshlar, ayniqsa, shahzodalarga xos tarzda o'yin-kulgiga o'ch, shaxs sifatida shakllanmagan va unda biron bir xarakter namoyon bo'lganligi kuzatilmaydi. Bu esa navoiyona romantizmning Nizomiya xos realizmdan farqli jihatidir.

Y.E.Bertels Nizomiyni dostoni haqida gapirib, u «Firdavsiy qissasining deyarli bironta detalini takrorlamaydi» («Nizami ne povtoril pochtu ni odnoy detali rasskaza Firdausi») deya xulosa bildiradi. Biroq bu o'rinda olim Firdavsiy asaridagi Xusrav bilan bog'liq faqat ikkinchi dostonni e'tiborga olgan ko'rinadi. Zero yuqorida ko'rib o'tganimizdek shahzoda Xusrav tabiatiga xos bo'lgan bu jihatlar Firdavsiy tomonidan ham qayd etilgan edi:

Hame romishu bazmu may kor bud,

Ba yak hafta du ro'z bashkor bud. [45. 595]

Mazmuni: Ishi doimo aysh-ishrat, bazm va mayxo'rlik edi. Haftada ikki kun ovga chiqar edi.

Xusravning yaqinlari orasida Shopur ismli rassom va jahongashta sayyoh bor edi. U naqqoshlik san'atini Chinda Moniydan o'rgangan edi. U o'z sarguzashtlari haqida so'zlar ekan Kaspiy dengizi sohillaridagi tog'liklardan birida Mihinbonu («Buyuk malika») laqabli malika Shamira hukmronlik qiladigan yurt borligi, Mihinbonuning go'zallikda tengsiz bo'lgan jiyani Shirin hamda shamolday uchadigan Shabdiz ismli oti haqida so'zlab beradi. Bu hikoyat Xusravning qalbida Shiringa nisbatan shavq uyg'otadi.

Xusravning dushmanlari uni shoh Xurmuz oldida badnom qilishga intilib, uni isyonkorlikda hatto o'z nomi bilan tanga zarb etganlikda ayblaydi. Xusrav

hayoti xavf ostida qolganligini sezib oddiy askar qiyofasida Ozarbayjonga yo'l oladi.

Firdavsiyning dostonida mazkur voqealar Eron taxtini qo'lga kiritish payida bo'lgan sarkarda Bahrom Chubina bilan bog'langan. U Xurmuz bilan Xusrav o'rtasida nizo chiqarish maqsadida Xusrav nomiga tanga zarb etadi. Buning natijasida Xurmuзд o'z o'g'lidan shubhalana boshlaydi va uni qatl etishga farmon beradi. Bu haqda xabar topgan Xusrav Ozar yeriga qochadi.

Demak Firdavsiyning dostonida mavhum bo'lib qolgan masala, ya'ni Xusravning nima uchun aynan Ozarbayjonga qochganligi Nizomiyning asarida mantiqiy asos kasb etadi. Bunda Xusrav nafaqat siyosiy maqsad yoki o'z jonini saqlab qolish, balki Shopur ta'riflab bergan beqiyos go'zallik sohibi Shirin bilan uchrashishni ham maqsad qiladi.

Dostonda Xusrav bilan Shirinning ilk uchrashuvi o'ziga xos tarzda berilgan. Madoyindan qochayotgan Xusrav kechasi o'rmondan o'tib borayotib oy yog'dusida ko'lda cho'milayotgan malaksiymo xilqat – Shiringa ko'zi tushadi. Uning yuzi sochlari bilan to'silganligi uchun taniy olmaydi. Shirin ham (Shopurning ko'rsatgan surati va tavsiflaridan Xusravni sevib qolgan Shirin Madoyinga yo'l olgan edi) oddiy askar kiyimidagi Xusravni tanimaydi.

“Nizomiy Xusravning mamlakat hayotida tanglik ro'y bergan vaqtlarda sarkarda sifatidagi faoliyati, jasorati va qahramonligi, adolat va tadbirkorlik bilan olib brogan ishlarini bu obraz qiyofasidagi ijobiy xislatlar sifatida tasvirlaydi” [34. 33].

Biroq ta'kidlash joizki, bo'lg'usi hukmdor sifatida tarbiyalangan Xusrav ishqning achchiq nash'asini totmagan, oshiqlik martabasidan uzoq bo'la turib Shiringa mayl ko'rsatadi. Uning bu boradagi kamchiligi, ayniqsa, asar sujetiga Farhod timsolining kirib kelishi bilan yaqqol namoyon bo'ladi.

Nizomiy Ganjaviy Farhod obrazini mazkur sujetga olib kirgan, bu obrazni (ta'bir joiz bo'lsa) kashf etgan muallifdir. Uning Farhodi hayotda bilim va hunardan boshqa hyech narsa orttirmagan, ko'ngli Shirin ishq bilan to'la, shu tufayli ishq yo'lida har qanday to'siqni ham yenga oladigan, bu yo'lda hatto jonini

ham qurbon qilishga tayyor bo'lgan insondir. U hech kim va hech narsaga bog'lanmaganligi tufayli ishq yo'lida oltin bilan tuproqni teng ko'radi. Shu yerda Nizomiy o'zini oshiq deb hisoblovchi, aslida havasga berilgan inson bilan, oshiqlik martabasida yetuklikka erishgan kishi, qolaversa, surat ishq bilan ma'ni ishq o'rtasidagi tafovutni yorqin ifodalab beradi.

Xusrav Farhodning Shiringa bo'lgan munosabatidan xabardor bo'lgach, rashk o'ti uning vujudini qamrab oladi. U Farhodni saroyiga chaqirtiradi va shoh sifatida unga o'z hukmini o'tkazishga harakat qiladi. Farhod saroyga kirar ekan:

Na bo Xusrav nigah kard-u na dar taxt,
Chu sheron panja kardan dar zamin saxt.

G'ami Shirin chunon az dil rabudash,
Ki parvoyi xud-u Xusrav nabudash.

Mazmuni: U na Xusravga va na taxtga qaradi, sher singari panjasini (oyog'ini) yerga maxkam tirab turardi. Shirin g'ami uning ko'nglini shunchalik olgan ediki, o'ziga ham Xusravga ham parvo qilmas edi.

Y.E.Bertels Nizomiy dostonidagi Xusrav va Farhod munozarasini jang maydonidagi qilichlar zarbiga qiyoslaydi: “Farhodning Xusrav bilan suhbat – dostonning eng shoyondiqqat o'rinlaridan biri. Xusravning savollari va Farhodning javoblari qilichbozlarning shamshirlari kabi kesishadi” [10. 234].

Bu munozarada faqat hukmdor va oddiy hunarmand orasidagi ziddiyat emas, balki ikki xil dunyoqarashdagi oshiqning, ikki turdagi ishqning ziddiyati, qolaversa, ijodkorning ishq va u bilan bog'liq falsafiy tushunchalarni idrok etish darajasi ham aks etgan.

Biroq mazkur munozara Xusrav uchun hech qanday natija bermaydi:

Chu ojiz gasht Xusrav dar javobash,
Nayomad besh pursidan savobash.

Ba yoron guft: k-az xokivu obi,
Nadidam kas bad-in hozirjavobi. [48. 217]

Mazmuni: *Xusrav ortiq savol berishdan ojiz qoldi, yaqinlariga qarab: “quruqlik va suvda bunday hozirjavob kishini kormaganman”.*

Farhodning Behistun tog’ida o’zi toshni yo’nib chizgan Shirin surati oldidagi monologi dostonidagi eng ta’sirli o’rinlardandir:

Agar dar teg’i davron zahmate hast,
Charo burrad turo noxun, maro dast.

V-agar be mayl shud pistoni gardun,
Charo baxshad turo shiru maro xun... [48. 221].

Zi Parvez-u zi Shirin-u zi Farhod,
Hama dar harf panjem, ey parizod.

Charo chun nomi har yak panj harf ast,
Ba burdan panjai Xusrav shigarf ast? [48. 223].

Mazmuni: *Agar davron tig’ining rahmati bo’lsa, nega sening tirnog’ingni, mening esa qo’limni kesadi. Agar gardun ko’kragi o’z mayli bilan harakatlansa, nega senga sut nasib etdi, menga esa qon (yutmoq).*

Ey parizod, Parvez, Shirin, Farhod - hammamizning ismimiz beshta harfdan iborat.⁹ Har birimizning ismimiz besh harfdan iborat bo’lgani holda, nega Parvezning panjasi qudratliroq bo’ldi.

⁹ E’tiborli tomoni Nizomiy taxallusi ham besh harfdan iborat. Bu haqda Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida shunday yozadi:

Otiki besh harf qilurlar xitob,
Ming bir erur aylasang oni hisob.
Ushbu adad birla oti gavhari,
Haqning o’lub ming bir oti mazhari (MAT. 7-tom. 49-bet).

Rashk o'tida yongan Xusrav Farhodni makr-hiyla bilan halok etadi va shoir talqinida umrining oxiriga qadar Farhod xuni uchun «javobgar» bo'lib qoladi» [34. 34].

Nizomiyning favqulodda mahorati shundaki, Xusrav timsolining takomillashuvi, dinamikasini yorqin hayotiy misollar bilan ko'rsatib berdi. «Ma'lum darajada ziddiyatli xarakter egasi egasi Xusrav dostonning so'nggi qismlarida Shirin tasirida yangi bir olamga qadam qo'yadi. U atrofiga olimlar, shoirlarni to'plab, ular bilan olam sirlari, ilm-hunar, tadbir-odobning foydasi to'g'risida savol-javoblar o'tkazadi. Mamlakatni adolat bilan boshqarish borasida choralar qidiradi» [34. 34].

Xusrav xarakterining kulminatsiyasi, ayniqsa, oxirgi lavhada yarq etib namoyon bo'ladi.

Xusravni taxtdan ag'dargan o'g'li Shiruya uni Shirin bilan birga zindonband etadi. Biroq bu bilan qoniqmagan padarkush o'g'il qotil yuborib otasining joniga qasd qiladi. Xanjar zarbidan uyg'ongan Xusrav jon talvasasida Shirinni uyg'otmoqchi bo'ladi. Biroq bir necha kundan beri uxlay olmagan, endigina uyquga ketgan Shirinni bezovta qilishni istamagan Xusrav ovoz chiqarmay jon taslim etadi. «Nizomiy xudbin, o'z maishatidan boshqa narsani o'ylamaydigan shahzodaning qayta tug'ilishini ajoyib tarzda namoyish etadi. Xusrav shu onda qahramon darajasiga ko'tariladi» [11. 226].

Demak Nizomiy talqinida Xusrav faqat Eron sulolalarining yirik vakiligina emas, to'laqonli murakkab badiiy obraz darajasiga ko'tarildi. Bunda uning Shirin bilan bo'lgan sarguzashtlari bilan bir qatorda Xusrav-Farhod ziddiyati, ayniqsa bu ziddiyatning kulminatsiyasi bo'lgan munozara muhim ahamiyat kasb etti. Buyuk mutafakkir va yuksak istedod sohibi bo'lgan Nizomiy Xusrav timsolining takomillashuvi, dinamikasini yorqin hayotiy misollar bilan ko'rsatib berdi.

Nizomiy yaratgan obrazlar keyingi avlod ijodkorlari uchun o'ziga xos namuna, imtihon, sinov maydoniga aylandi.

2.2. XIII-XV asrlar adabiyotida Xusrav timsoli.

Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostoni XIII-XIV asrlardan boshlab forsiyzabon va tirkiyzabon xalqlar orasida katta shuhrat qozondi. XIV asrning birinchi yarmiga qadar mazkur dostonning fors-tojik tilidagi nazirasi “Shirin va Xusrav” (Xusrav Dehlaviy) hamda turkiy tildagi badiiy tarjimasi (Qutb Xorazmiy) maydonga kelganligi buning yorqin dalilidir. Umuman olganda, rus olimi G.Y.Alievning ma’lumot berishicha, adabiyotshunoslikda ushbu mavzuda yozilgan oltmishdan ortiq asar aniqlangan [6. 163].

Nizomiy Ganjaviydan keyin bu mavzuda qalam tebratgan ilk ijodkor fors-tojik tilidagi hind adabiyotining yirik vakili Amir Xusrav Dehlaviydir. U 1298 yilda o’z «Xamsa»sining ikkinchi dostoni «Shirin va Xusrav»ni yaratib, Nizomiy asariga javob aytish an’anasini boshlab berdi. Amir Xusrav o’z dostonida Xusrav va Shirin voqealarini sujet nuqtai nazaridan ancha soddalashtirganligi va asosiy e’tiborni dostonning falsafiy mazmundorligi hamda badiiy barkamolligiga qaratganligi ilmiy manbalarda qayt etiladi.

Xusrav Dehlaviy ham bu mavzuga murojaat qilganda, unga xuddi Nizomiyda bo’lganiday, badiiylik mezonidan kelib chiqib munosabat qiladi. Buning natijasida, Xusrav Dehlaviy qalamiga mansub "Shirin va Xusrav" dostoni qurilmasida ham, uslubi va obrazlar talqinida ham Nizomiydan farq qiladigan tomonlar anchagina.

Bu dostonda Xusrav o’z faoliyatining dastlabki davrlaridanoq, adolatpeshaligi, aqli, shijoati, raiyatparvarligi bilan ijobiy qahramon sifatida gavdalanadi. Ammo ideal hukmdorning barcha xislatlariga ega bo’lgan Xusrav ham haqiqiy ishqning sinovlariga tayyor emas. Sababi, shohlik va oshiqlik martabasi bir kishida mujassam bo’lishi mumkin emas.

Alisher Navoiy bu g’oyani o’zining ko’plab asarlarida turli xil misollar bilan izohlaydi. Xususan, Xusrav sarguzashtlaridan chiqargan xulosasi, ayniqsa e’tiborga molik:

Kerak ishq ahli qul bo’lmoq bu so’zga,

Ki, shohliq o'zgadur, oshiqlik o'zga.

Xusrav Dehlaviy shu fikrni munozara oxirida Farhod tilidan quyidagicha keltiradi:

Tu Xusravro nasihat kun dar in dard,
Ki xohad mond az toju nigin fard.

Chu o' dar oshiqi bozad jahonro,
Maro xud sahl boshad tarki jonro [47.106].

Mazmuni: *Sen bu darddan xoli bo'lishni Xusravga maslahat qil. Chunki u ishq tufayli toji-yu shohlik muhridan mahrum bo'lishi mumkin. U ishq tufayli jahonni barbod etishi mumkin. Mening esa jonimdan bo'lak hyech narsam yo'q va undan kechish oson.*

Xusrav Dehlaviy Farhodni Chin xoqonining o'g'li sifatida qalamga olib, Shirinni sevuvchi oshiq sifatida tasvirlaydi. Bunda Shirin ham Farhodni sevajagini e'tirof etadi (bu e'tirof Nizomiyda yo'q). Xusrav Dehlaviy dostoni voqealarida Farhodning ishtiroki Nizomiy dostonidagidan ko'ra ko'proq, kengroq. Dehlaviy dostonidagi Farhod obrazi Majnunvash, Shirin ishqni iztirobga soladi, hayotdan uzoqlashtiradi. G.Aliyev buni shunday ta'riflaydi: «Bu muhabbat uning yashashi va mehnat qilishiga madad bermaydi, ishq uni tushkunlikka soladi, o'lim haqidagi o'ylarga olib keladi» [6. 148].

Xusrav va Farhod timsollarining xarakter xususiyatlari, ayniqsa, ularning o'zaro muloqotida, ya'ni mashhur "Xusrav va Farhod" munozarasida yaqqol namoyon bo'ladi. Qahramonlarning ruhiyati va xarakter xususiyatlaridan kelib chiqib har ikki ijodkor munozarani yuzaga keltirish uchun ikki xil vaziyat yaratadi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Nizomiy Ganjaviyning dostonida Xusrav Farhodni saroyiga chaqirtiradi va shoh sifatida unga o'z hukmini o'tkazishga harakat qiladi. Buning natijasida o'rtada ziddiyat yuzaga keladi.

Xusrav Dehlaviy dostonida esa Parvez Farhod ishq ovozini eshitgach, uning oldiga cho'pon qiyofasida boradi. Bu dostonida munozara shoh bilan oddiy hunarmand o'rtasida emas, balki bir xil mavqega ega bo'lgan ikki inson orasida bo'lib, ziddiyat kuchsiz va yashirin tarzda aks etgan.

Xusrav Dehlaviy tarixiy Xusravga nisbat beriladigan kamchiliklardan biri, ya'ni Shiringa qattiq bog'lanib qolish va uning tasirida turli hukmlar chiqarish (davlat hukmdori uchun bu jiddiy illat sanaladi) nuqsonini bartaraf etishga intilganligi seziladi. Jumladan, uning Isfahon shohining qizi Shakarga uylanishi ham Shopurning maslahati bilan aynan shu maqsadda kiritilgandir.

Xusrav Dehlaviyning «Xamsa»si yaratilgandan keyin xamsanavislik an'anaga aylandi. Buning natijasida, bu mavzularda, ayniqsa, Xusrav va Shirin mavzusida butun Sharq bo'ylab qator dostonlar yuzaga keldi. Bularning ayrimlari tarjimaga yaqin bo'lsa, ayrimlari ariginal asarlar bo'lib hisoblanadi.

1340 yilda Oltin O'rda xonlaridan Tinibek saroyida shoir va tarjimon Qutb Xorazmiy Nizomiyni «Xusrav va Shirin» dostonini turkiy tilga tarjima qildi. Qutbning bu asari olimlar tomonidan turlicha baholanadi. Chunonchi, Y.E.Bertels uni to'g'ridan-to'g'ri tarjima deb aytsa, A.A.Zayanchkovskiy bu asarni Nizomiy dostonining dastlabki turkcha varianti, G.Aliyev esa qisqartirilgan tarjima, deya baholaydi [6.163-64]. O'zbek adabiyotshunosligida esa Qutbning mazkur dostonini erkin tarjimadan boshlab ariginal asar darajasigacha baholash holatlari kuzatiladi.

Sujet nuqtai nazaridan Qutbning asari Nizomiy dostonidan deyarli farq qilmaydi. Biroq obrazlarning o'zaro munosabati, nutqida ma'lum darajada davr ruhi aks etganligi kuzatiladi. Xususan, Xusrav nutqida Oltin O'rda xonlariga xos unsurlarni ilg'ab olish mumkin.

Shu mavzuda yaratilgan o'ziga xos dostonlardan biri ozarbayjonlik forsiyzabon shoir Orif Ardabiliyning 1369 yilda yozilgan «Farhodnoma» asaridir. Bu asar haqida mashhur ozor adabiyotshunosi H.Arasli tadqiqotlarida¹⁰ G'.Begdeli va S.Erkinovning ko'p bora murojaat qilayotganimiz monografiyalarida

¹⁰ Arasli H. Nizomiy va Navoiy // "Guliston" jurnali, 1940-yil, 4-son; Arasli H. Navoiy merosini o'rganish tarixidan // Til va adabiyot masalalari. 1960-yil, 3-son.

akad. B.Valixo'jayevning kitoblarida qisman ma'lumot berilgan. H.Arasli Alisher Navoiyning dostonida tilga olingan muallifi noma'lum asar aynan Orif Ardabily dostoni degan taxminni ilgari surib, "Farhodnoma" va "Farhod va Shirin" dostonlari o'rtasidagi o'xshashliklarni aniqlashga intilgan. B.Valixo'jayevning xulosalariga ko'ra "Farhodnoma"da "Farhod obrazining tasviri o'zgacha yo'nalishda amalga oshirilgan. Bu esa Orif Ardabiyning ijodiy konsepsiyasi, ya'ni Farhodni ideal emas, balki oddiy inson sifatida tasvirlashga intilishi bilan bog'liqdir" [14. 151]. Binobarin uning Farhodi bilan Alisher Navoiy yaratgan Farhod o'rtasida prinsipial tafovutlar mavjud.

Orif Ardabily dostoni ikki qismdan iborat ekani haqida shunday yozadi:

Zi no'gi xomaam "Farhodnoma",
Du qismat gasht hamchu no'gi xoma.

Yake dar ishq Farhodu Guliston,
Kanori havzu ayshi bog'u bo'ston.

Duvum dar ishq Farhod astu Shirin
Safoi qasru ko'hu jo'yi shirin.

Mazmuni: *Qalamim uchidan tug'ilgan "Farhodnoma" dostoni qalamim uchidek ikki qismdan iborat: birinchisida Farhod va Guliston ishq, hovuz qurilishi, bog'u bo'ston haqida hikoya qilinsa, ikkinchisida Farhod va Shirin ishq hamda qasr, tog' va sut arig'i haqida hikoya qilinadi.*

Madoyinda Shirin turgan qasrda Farhodning paydo bo'lishi, uning sut arig'i voqeasi Xusrav Parvezda kuchli rashk o'tini qo'zg'atadi. U Shopur orqali Farhodni o'z huzuriga chaqirtiradi. Lekin bu vaqtlar Xusrav Maryamni o'z nikohiga olgan bo'lib, uning izmidan tashqari ish tutolmas edi. Shunga ko'ra, uning Farhodga bergan savollari Nizomiy asaridagidek jiddiylikdan mahrum edi.

“Xusrav obrazida ko’proq salbiy xislatlarni jamlab ko’rsatish tendensiyasi “Farhodnoma”dan boshlab an’anaga aylana bordi. Nizomiy dostonidagi Xusravdan farqli ravishda bu yerda Xusrav eng ko’ngilsiz voqealarning sababchisi sifatida gavdalanadi” [34. 51].

Suhbat davomida Xusrav savollariga ko’pincha Farhod emas, balki Shopur javob beradi. Xusrav Farhodni qanchalik rashk qilmasin, Maryamdan qo’rqib, Shirin masalasida jiddiy bir fikr bildirsa olmaydi. Suhbat Xusravning Besutunni kesib yo’l ochish to’g’risidagi farmoni, Farhodning esa Shiringa bo’lgan mayli tufayli buyruqni qabul qilishi bilan xotimalanadi [34. 183].

XV asrda yashagan Ashraf Marog’aviy ham o’z "Xamsa" si tarkibida Farhod, Shirin va Xusrav qissasidan bahs yurituvchi "Shirin va Xusrav" dostonini kiritgan. Alisher Navoiyning qayd qilganidek, Ashraf ham bu mavzuga o’zgacha tarzda yondashgan ekan:

Bu maydonga chu Ashraf surdi markab,
Bu so’zni o’zga nav’ etti murattab.

Biroq XV asrning II yarmiga qadar “Xamsa” yaratgan shoirlardan biri Ashrafning hozircha faqat bitta dostoni “Haft avrang” topilgan hamda tadqiq etilgan.¹¹

Alisher Navoiyga qadar Xusrav obrazi yana bir qator asarlarda yaratildi. Biroq ularda Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy yaratgan an’analarga nisbatan jiddiy o’zgarish sezilmaydi.

Xamsanavislik taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko’rsatgan shoir va mutafakkir Abdurahmon Jomiy o’z dostonlar turkumida "Xusrav va Shirin" hamda "Bahrom Go’r" syujetlarini chetlab o’tdi. Bu haqda shoir “Xiradnomai Iskandariy” dostonida shunday yozadi:

"Xiradnoma" z-on ixtiyori man ast,
Ki afsonaxoni na kori man ast.

¹¹ Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfasi. – Toshkent: G’ulom nomidagi NMB, 1991.-189 b.

Zi asrori hikmat suxan rondan,
Beh az qissahoyi ko'han xondan.

Mazmuni: *“Xiradnima”ni ixtiyor etganligimning sababi, afsona aytish mening ishim emas. Hikmat sirlaridan so'z yuritish qadimiy qissalarni o'qishdan afzalroqdir.*

Abdurahmon Jomiyning Xusrav va Shirin timsollariga munosabati “Tuhfat ul-ahror” dostonida keltirilgan bir hikoyatda yaqqol namoyon bo'ladi.

Bir baliqchi ulkan baliq ushlab, shoh Xusravga tortiq qilish uchun saroyga keladi. Xusrav uning himmatini munosib taqdirlab to'rt ming dinor berishni buyuradi. Baliqchi cheksiz minnatdorchilik bildirib saroydan chiqqach, Shirin Xusravga murojaat qilib, uning qilgan ishi bir tomondan oliyhimmatlik bo'lsa, ikkinchi tomondan xato bo'lganligini aytadi. Zero bundan keyin biron bir xizmat uchun haq to'lansa, bitta baliqning puli yoki bitta baliqning pulidan ham kam berdi, deb aytadilar. Xusrav: -Nima qilish kerak, bergan pulni qaytarib olib bo'lmaydi-ku? – deganda, Shirin unga bir hiyla o'rgatadi. Baliqchini chaqirib baliqning jinsi erkak edimi yoki urg'ochi, deb so'rash lozim. U qanday javob berishidan qat'iy nazar, biz bu jinsdagi baliqni yemaymiz, deb aytish lozim.

Xusrav baliqchini chaqirtirib shu savolni berganda u: - Men olib kelgan baliq xunasa (jinssiz yoki ikki jinsli) edi, deb javob beradi. Xusrav uning topqirligiga qoyil qolib, unga yana to'rt ming dinor berishni buyuradi. Baliqchi oltinlarni zo'rg'a ko'tarib ketayotganda bitta tanga yerga tushadi. U qiyinchilik bilan engashib tangani oladi. Shunda Shirin Xusravga qarab:

- Ko'rdingizmi u qanchalik xasis ekan, bitta baliq uchun shuncha oltin berganingizga qaramay, u birgina tangani ham boshqaga ravo ko'rmadi, - deb aytadi. Xusrav baliqchiga qahr bilan murojaat qilganda, baliqchi: - Shohim, bu tangada sizning muborak suratingiz bor. Uni birov bexosdan bosib qo'ymasligi uchun yerdan oldim, - deb javob beradi. Xusrav bu javobdan g'oyat mamnun bo'lib yana to'rt ming dinor berishni buyuradi. Shundan keyin butun mamlakat bo'ylab farmon tarqatadi:

- Bundan keyin hech kim xotinning gapiga kirmasin, aks holda keragidan uch barobar ko'p pul sarflaydi.

Demak Alisher Navoiyga qadar Xusrav, Shirin va Farhod timsollari fors-tojik va turkiy adabiyotda ko'p bora ishlangan bo'lsa-da, ularga munosabat turlicha edi. Nizomiy Ganjaviy yaratgan an'analarga davr ijodkorlari turlicha yondashdilar.

Xulosa qilib aytganda, Xusrav timsolini ilk marotaba alohida dostonning bosh qahramoni darajasiga olib chiqqan Nizomiy Ganjaviy o'z dostonini yaratishda sosoniy solnomalar va tarixiy asarlardan tashqari turkiy va forsiy xalqlarning og'zaki ijodidan ham unumli foydalandi.

Nizomiy talqinida Xusrav faqat Eron sulolalarining yirik vakiligina emas, to'laqonli murakkab badiiy obraz darajasiga ko'tarildi. Bunda uning Shirin bilan bo'lgan sarguzashtlari qatorida Xusrav-Farhod ziddiyati ham muhim ahamiyat kasb etti. Buyuk mutafakkir va yuksak istedod sohibi bo'lgan Nizomiy Xusrav timsolining takomillashuvi, dinamikasini yorqin hayotiy misollar bilan ko'rsatib berdi.

Xusrav Dehlaviy ham bu mavzuga murojaat qilganda, unga xuddi Nizomiyda bo'lganiday, badiiylik mezonidan kelib chiqib munosabat qiladi. Buning natijasida, Xusrav Dehlaviy qalamiga mansub "Shirin va Xusrav" dostoni qurilmasida ham, uslubi va obrazlar talqinida ham Nizomiydan farq qiladigan tomonlar mavjud. Bu dostonida Xusrav o'z faoliyatining dastlabki davrlaridanoq, adolatpeshaligi, aqli, shijoati, raiyatparvarligi bilan ijobiy qahramon sifatida gavdalanadi.

Xusrav obrazida ko'proq salbiy xislatlarni jamlab ko'rsatish tendensiyasi Orif Ardabiliyning "Farhodnoma" dostonidan boshlab an'anaga aylana bordi. Nizomiy dostonidagi Xusravdan farqli ravishda bu yerda Xusrav eng ko'ngilsiz voqealarning sababchisi sifatida gavdalanadi.

Alisher Navoiyga qadar Xusrav obrazi yana bir qator asarlarda yaratildi. Biroq ularda Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy yaratgan an'analarga nisbatan jiddiy o'zgarish sezilmaydi.

3-BOB:

”FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA XUSRAV TIMSOLINING G’OYAVIY MAQSADI VA BADIYYATI

3.1. Alisher Navoiyning ”Farhod va Shirin” dostonida salaflar va ularning asarlariga munosabat.

Alisher Navoiyning insoniyat va ayniqsa turkiyzabon xalqlar oldidagi eng buyuk xizmatlaridan biri besh bebaho xazina yaratib, “Xamsa”dek monumental asarni maydonga keltirgani bo’ldi. Uning “Xamsa”si nafaqat turkiy tilda ilk marotaba yaratilganligi, balki mazkur janrning taraqqiyotiga, o’zining ta’biri bilan aytganda, “takmili”ga xizmat qilganligi, uning har bir satrida olam-olam ma’no durlari yashiringanligi bilan belgilanadi. Shu jihatdan akad. B.Valixo’jayev uni “nazirai benazir” deya baholaganlar. Navoiy “Xamsa”sining bu xislatlari uning ikkinchi tarkibiy qismi bo’lmish “Farhod va Shirin” dostonida eng ko’p namoyon bo’lganligi barcha tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan.

Alisher Navoiy «Xamsa» yozishga kirishgan paytda har bir dostonning mavzusi oldindan belgilangan edi. «Muhokamat ul-lug’atayn»da u barcha dostonlarining yozilishida koproq madad bergan asarlar qayd etadi. Jumladan: “Yana chun «Farhod va Shirin» shabistonig’a xayolim yuz tutubdur, Mir Xusrav dami «Shirin va Xusrav» o’tidin charog’imni yoritibdur” [42.120].

Alisher Navoiy mazkur mavzuga murojaat qilgunga qadar unga ko’pgina mualliflar turli xilda yondashib, dostonlar bitganlar. Navoiy bularning ko’pidan xabardor edi. U o’z dostoni muqaddimasida Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy shaxsiyati va dostonlari haqida alohida to’xtaladi. Birini “Ko’ngul kunjin qilib ganji maoniy” deya ta’riflasa, ikkinchisini “to’tiyi shirin maqol, bulbuli sho’rida xol” deya tavsiflaydi. O’zining asar yozish istagini shunday bayon etadi:

Mangakim bu tamanno bo’ldi paydo

Ki, shavqi ayladi ko’nglumni shaydo...

Qalam bargu guli nasringa surmak,
 Raqam Farhod ila Shiringa surmak. [40. 35]

Biroq Navoiy qanday murakkab vazifa oldida turganligini yaxshi his qilar edi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
 Nizomiy panjasig'a panja urmoq.

Kerak sher oldida ham sheri jangi,
 Agar sher o'lmasa, bore palangi,

- deb yozadi hamda qanday qiyin va mas'uliyatli ish oldida turganligini ta'kidlaydi.

U o'zigacha yozilgan asarlardan farq qilguvchi yangi dostonni yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganini shunday ifoda etgan:

Burun jam` et nekim bo'lg'ay tavorix,
 Borida ista bu farxunda tarix.

Topilg'ay shoyad andog' bir necha so'z,
 So'z aytur elg'a ul yon tushmagan ko'z.

Ani nazm etki tarhing toza bo'lg'ay,
 Ulusqa mayli beandoza bo'lg'ay.

Bu she'riy parchada qiziq bir ishora bor: Alisher Navoiy o'ziga murojaat qilib aytadiki, sen Farhod, Shirin va Xusrav mavzusiga oid barcha tarixni ko'zdan kechirib, Nizomiy, Xusrav Dehlaviylar dostonlarida uchramaydigan lavha, voqealarni topgil:

Qilib ko'nglumni bu andisha shaydo,
 Tavorix ayladim har sori paydo...

Topildi oncha so'z kim, komim erdi,
 Quyuldi oncha maykim jomim erdi. [40. 45]

Alisher Navoiy mavzuga doir ko'pgina tarixlarni ko'zdan kechirgan. Shunisi ham borki, bu tarixlar faqat yozma manbalardan iboratmi yoki xalq og'zaki ijodidagi shu mavzuga oid tarix - rivoyatlarni ham qamrab oladimi-yo'qmi, bu haqda aniq aytilmagan. Buni eslatishdan maqsad shuki, Farhod Shirin haqidagi qissa faqat yozma manbalarda, dostonlardagina emas, balki xalq og'zaki ijodida ham X-XI asrlardan boshlab ko'zga tashlanadi. Ana shulardan biri Xorazmdagi mashhur Dev qal'a yodgorligi bilan bog'liq rivoyatdir. Unda Farhod dev tarzida, ya'ni odamzod bajara olmaydigan ishlarni amalga oshiruvchi sifatida tasvirlanadi. Yoki, Sirdaryo vohasidagi Farhod tog'i va Shirin suvi bilan bog'lanadigan rivoyat ham ana shu xildagi qissalardandir. Bu qissa - rivoyatlardagi ko'pgina lavhalar-Farhodning toshyo'narlighi, oddiy insonlar bajara olmaydigan ishlarni bajara olishi, Shirin xohishi bilan suv arig'i qazilgani, Farhodning makkor kampir hiylasi bilan vafoti va boshqalar Alisher Navoiy dostonidagi voqealar bilan hamohangdir. Shunday bo'lsa-da, Alisher Navoiy bu qissa- rivoyatlardan xabardor edimi-yo'qmi bu haqda aniq mulohaza yuritish qiyin. Har holda Alisher Navoiy o'z dostonini yozishdan oldin juda ko'p manbalarni ko'rib, ulardan ajralib turadigan go'zal dostonini yaratgan.

Navoiy o'ziga qadar shu mavzuda yaratilgan asarlarni umumiy tarzda tavsiflar ekan, shunday yozadi:

Vale chekkanlar ushbu jomdin roh,
 Sarosar bo'ldilar Xusravg'a maddoh.

Ki mulki andog'u oyini mundoq,
 Sipohi andoqu tamkini mundoq...

Topib gah Maryam og'ushida orom,
Shakar halvosidin gohi olib kom.

Bo'lib Shiring'a oshiq podshahvor,
Goh ul mahbub o'lub, gohi parastor.

Yaqindurkim bu shohi nozparvard,
Erur dardu balo oyinidin fard.

Alisher Navoiy Nizomiy va Amir xusrav dostonlaridan tashqari, yana bir necha manbalarni tilga oladi. Jumladan, XV asrda yashagan Ashraf Marog'aviy ham bu mavzuga o'zgacha tarzda yondashganligini qayd etadi:

Bu maydonga chu Ashraf surdi markab,
Bu so'zni o'zga nav` etti murattab.

Shu mavzuda yana bir asar yozilganligi, biroq uning muallifi aniq emasligi ham eslatib o'tiladi:

Yana bo'lg'on ekan bu noma marqum,
Vale roqim emastur yaxshi ma'lum. [40. 49]

Alisher Navoiy tarixiy Xusravni emas, afsonaviy Farhodni o'z asarining asosiy qahramoni qilib oladi va unigina Shirin ishqiga munosib, deb biladi:

Meni mahzungakim ishq etti bedod,
Solib g'am tog'ida andoqki Farhod.

Munosibdur agar tortib navoni,
Desam Farhodi mahzun dostoni. [40. 47]

Darhaqiqat, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin"i undan oldin shu mavzuda yozilgan dostonlardan, xususan, Nizomiy va Xusrav Dehlaviy talqinidagi dostonlardan tubdan farq qiladi. Bu farq, eng avvalo, ustozlar tomonidan qalamga olingan Farhod obrazining butun bir dostonning bosh qahramoni sifatida talqin qilinishida, Farhodni yaxlit bir ideal obraz- komil inson darajasida tasvirlanishida ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Bu jarayonda Alisher Navoiyning dostonida Farhodning ishq muhabbatdagi "so'zu dard"- kuyish va dardlariga alohida e'tibor berganini o'qtirish lozim. Bu haqda Alisher Navoiy shunday yozadi:

Bo'lurdin dahr bo'stonida mavjud,
Emasdur g'ayri so'z-u dard maqsud.

Ki ishq ahlidin o'lg'ay dostoni,
Muhabbat xaylidan qolgay nishone. [40. 45]

Alisher Navoiy «Farhod va Shirin» dostonining 2-bobida Allohning sifatlari haqida gapirilib, ayrim ilohiy, falsafiy tushunchalar asar qahramonlari, obrazlari nomi bilan majoziy tarzda ifodalanadi. Chunonchi, taqdirni Shopur, ajalni Sheruya, kechani Shabdiz (Xusravning oti), hikmatni Suqrot, aqlni Mulkoro, ko'ngilni Moniy ustaxonasi kabilar. Bular bir qarashda oddiy tashbeh yoki so'z o'yini, tasvir vositasiga o'xshaydi. Biroq asarda yashiringan g'oyalar tizimini ochish uchun, bizningcha, aynan shu tushunchalar kalit vazifasini bajaradi. Mavzu talabidan kelib chiqib, mazkur bobda asosiy qahramonlar tilga olingan baytlargagina e'tibor qaratmoqchimiz.

Alloh bu dunyoning har bir zarrasida ishqni oshkor etib, inson ko'nglini ishq xazinasini qildi va bu ishqni junbushga keltiruvchi husn yaratdi. Boshqacha qilib aytganda, o'z husnini zuhur etdi:

Valekin husn o'tin aylab jahonso'z,
Bularni andin etti olamafro'z.

Ayni shu yerda Navoiy Shirin nomini tilga oladi:

Ne mahvash husnig'akim berdi tazyin,
Ani aylab jahon ahlig'a Shirin.

Demak, Navoiy husn tushunchasini yoxud tangri zuhurini Shirin nomi bilan, bu husnga shaydo bo'lib «balo tog'i» (foniy dunyo)da azob chekan insonlarni umumlashtirib Farhod nomi bilan ataydi:

Yeturganga balo tog'ida bedod,
Laqab aylab zamona ichra Farhod.

Bundan ma'lum bo'ladiki, asardagi Shirin faqat oddiy ma'shuqa obrazi emas, balki azaliy husn, zuhurning majoziy timsoli, Farhod esa shu azaliy husnning azaliy shaydosi, boshqacha qilib aytganda, vaqtinchalik ajralgan butunlik. Chunki:

Nedin oshiqni o'rtar shayni ma'shuq,
Chu oshiq munda keldi ayni ma'shuq.

Ikisi balki ayni ishq, faham,
Tugandi barcha so'z, vallohu a'lam...

O'zi naqsh-u, o'zi manqush-u naqqosh,
Kishi bu sirni mendek qilmadi fosh.

Chindan ham oldingi asarlarda bunday fikrlar ayrim ishoralar tarzida mavjud bo'lsa-da, oshkora bayon qilinmagan edi. Tasavvufshunos va navoiyshunos olim N.Komilov dostonning shu xususiyatiga e'tibor qaratib uning maqsadi «ilohiy ishq» «dardini kuylash», «Farhod esa anna shu ilohiy ishqqa muhtalo solikdir» deb

yozadi. Shirin esa «Farhodning majoziy ishq uchun mazhar»dir [19. 210]. Xusrav esa “ilohiy ishqdan mahrumlik, dunyoviy zulmning timsoli” [19. 211]. Olim «Farhod va Shirin» dostonini tasavvuf yo’liga kirgan solikning riyozat chekib tariqat bosqichlarini bosib o’tishi va ilohiy ishq, vahdat ul-vujudga erishuvining romantik tarzda badiiy ifodalanishi deya baholaydi.

3.2. “Farhod va Shirin” dostonida Xusrav timsoli.

Xusrav “Farhod va Shirin” dostonining 36-bobidan to 51-bobiga qadar voqealar tizimida ishtirok etadi. 36-bobda o’quvchi Xusrav bilan tanishtiriladi:

Bu tarix ichra mag’rib hukmroni,
Ne mag’ribkim, jahon kishvarsitoni

Ajam birla arab mulkida dovar,
Arab birla ajamg’a shohu sarvar.

Shahe erdiki derlar oni Xusrav,
Mutii amri garduni sabukrav.

Jahon mulki tutub xayli sipohi,
Madoyin mulki oning taxtgohi.

Nasabda topibon Kisroga payvand,
Qayu payvand, farzandig’a farzand...

Oti Xusrav laqab otig’a Parvez,
Bu otu bu laqab shuhrat qilib tez.

Ulusqa irs birla hukmron ul,
Atodin to ato xusravnishon ul. [40. 282-281]

Ko'rinib turibdiki, mazkur baytlarda “makkor, zolim, qo'rqqoq, shafqatsiz qonxo'r, ikkiyuzlamachi, beburd, nomard» kabi illatlarga hatto ishora ham yo'q. Zero bunday illatlar egasi bo'lgan kishi o'rta asrlarda “tangrining yerdagi soyasi” deya e'tirof etiluvchi hukmdor darajasiga yeta olmasligi Alisher Navoiyga hammadan ko'ra ko'proq ma'lum edi. Binobarin, “Atodin to ato xusravnishon” bo'lgan Xusravning bu tarzda talqin etishi mumkin emas edi.

Tadqiqotlarda Xusravning illatlari muallif tilidan emas voqealar rivoji hamda Farhod tilidan ochib borilishi qayta-qayta ta'kidlanadi. Buning uchun yetarli darajada asoslar bor, albatta. Quyida voqealar rivoji davomida yuqorida qayd etilgan “fazilat”larning qaysilari yaqqol namoyon bo'lishi, qachon namoyon bo'lishi va qanday ifodalanishiga imkon qadar e'tibor qaratishga harakat qilamiz. Biroq bunda nafaqat komil inson, yoki yuksak ma'naviyat egasi, yoxud haqiqiy oshiq nuqtai nazaridan, balki “**inson**” (ojiz va qudratli jihatlari bilan birga) pozitsiyasida turib fikr yuritish, bunda ham bugungi kun emas Navoiy yashgan davrdagi ijtimoiy etika yoxud qadriyatlar nuqtai nazaridan baho berishga harakat qilamiz. Zero Navoiy ham boshqa buyuk mutafakkirlar ham jamiyatdagi har bir insondan komillikni kutmagan.

N.Komilovning fikrlariga ko'ra Xusrav ishq “Mahbub ul-qulub”da bayon etilgan ishq “marotib”laridan birinchisi – avom ishqiga to'g'ri keladi. “Chunki Xusravning maqsadi Shirinni xotin qilib olish va o'z haramiga qo'shishdir. U zo'rlik bilan bunga erishmoqchi bo'ladi” [19. 211].

Qayu birkim qo'yub oyini raf'at,
Xalafqa topshurub taxti xilofat.

Yaqin anglabki davroni kuhan gard,
Anga ham tutqusi bu sog'ari dard.

Chu nogah xoli o'lsa umri jomi,

Keraktur bir xalaf qoim maqomi.

Baytlardan anglashiladiki Xusravning asl maqsadi “Shirinni... o’z haramiga qo’shish” emas balki o’zidan keyin munosib voris, farzand qoldirish. Buning uchun esa har tomonlama munosib juft lozim. Chunki:

Vagar xud ichsa suv o’rnida zahrob,
Chamanda gul butar, lavnida yuz tob.

Gar o’lsa tarbiyat kam yo ziyoda,
Tabiat aylamas tag’yiri zoda.

Xirad dehqoni mundog’ nuktae der:
“Ki dona sochqoli yaxshi kerak yer”. [40. 283]

Xusravning oldingi nikohi (Maryam)dan tug’ilgan farzandi (Sheruya) bor edi. Biroq ota unda bo’lajak hukmdor uchun zarur fazilatlarni ko’ra olmaydi:

Agarchi aqdi zavj aylab muqarrar,
Bo’lub erdi anga gavhar muyassar.

Va lekin ermas erdi loyiqi toj,
Ki, bo’lg’aylar anga toj ahli muhtoj.

Bunda ikki holatni inobatga olish lozim. Birinchidan, Xusrav Maryamga o’z ixtiyori bilan emas, kelishuv asosida, Rum Qaysarining shartini bajarish uchun uylangan. Ikkinchidan, Sheruya tug’ilganda munajjim va kohinlar uning kelajagi haqida yomon hodisalarni bashorat etgan. Sosoniylar saroyida ularning mavqei qay darajada bo’lganligi tarixdan ma’lum. Shuning uchun u:

Nikoh ichra tilar erdi takarrur,
Ki topqay tojg'a shoyista bir dur.

Shunday bir holatda Xusravga Shirin haqida xabar berishadi:

Ne hurekim yurub qilg'och takallum,
Uyotdin tubi-yu kavsar bo'lub gum.

Kishiga o'xshamas go'yo paridur,
Pari yo'q, oftobi xovaridur. [40. 284]

Endi Navoiy tilidan keltirilgan usbu baytlarga e'tibor qilaylik:

Xayolida kecha kunduz ul erdi,
Tilida kecha-kundiz so'z ul erdi...

Chu to'sh-to'shdin bu so'zlar bo'ldi paydo,
Havas bir yo'li ko'nglin qildi shaydo. [40. 286]

Kecha kunduz xayoli va tilida Shirin bo'lgan kishiga nisbatan “soxta oshiq” emas Navoiyning o'zi aytganidek “havas ko'nglini shaydo qilgan” kisi iborasi ko'proq mos keladi. “Soxta oshiq” deganda odatda o'zini oshiq qilib ko'rsatadigan kishi tushuniladi. Xusrav esa bunday emas. U ko'nglida tug'ilgan “havas”ni ishq deb tushunadi, u IShQning bundan yuksakroq martabalariga tabiatan qodir emas, jamiyatning aksariyat aql bilan ish ko'ruvchi a'zolari singari buni noto'gri, telbalik deb tushunadi. Bu esa Xusrav timsoli orqali Navoiy ko'rsatmoqchi bo'lgan eng asosiy illatdir.

Xusrav Mehinbonu oldiga elchi (sovchi) jo'natib o'z muddaosini bayon etadi. Biroq undan “Shirin oilaviy hayotga tayyor emas, degan mazmunda rad javobini eshitadi.

Eshitgach tund o'lub doroyi dovar,
G'azabdin qilmadi ul so'zni bovar.

Yana bir tundroq elchi yubordi,
Aning dog'i javobi bo'yla bordi.

Yaqindurkim bu bema'ni fasona,
Erur boshtin-ayog' makru bahona. [40. 296]

Alisher Navoiy tarixiy-badiiy an'analardagi voqealar ketma-ketligi va mohiyatini o'z g'oyaviy maqsadi yo'lida o'zgartirgan. Mavjud an'analarga ko'ra Farhod voqealar tizimiga Xusrav bilan Shirin o'rtasida munosabatlar shakllangandan keyin kirib keladi. Navoiyda esa buning teskarisi. Farhod haqidagi mish-mishlar uning qulog'iga chalingan edi. Shu tufayli Sharqning eng qudratli hukmdori Mehinbonuning bunday javobidan darg'azab bo'lishi, aslida tabiiy holdir. Mehinbonu (uning ayol kishi ekanligi ham Xusravga ta'sir etganligi aniq)ning "fasona"si "boshtin-ayoq makru bahona" ekanligi asar voqealaridan ham anglashiladi.

Nega xud chiqmasun sung'ur¹² jahondin,
Ko'rub shavkat sadosi mokiyoundin?

Xusravda salbiy xususiyatlarning namoyon bo'lishi ayni shu lavhadan boshlanadi:

Sitamdin yetkuray andoq sazoye,
Solay kishvarlari ichra baloye

Ki, qayda bor esa bir xayli payvand,
Qiyomatg'a dekin bo'lg'ay anga pand.

¹² Sung'ur – lochin, shunqor.

Bundan Navoiyning chiqargan eng asosiy xulosasi esa:

Kerak ishq ahli qul bo'lmoq bu so'zga
Ki, "shahliq o'zgadur, oshiqliq o'zga".

Shuning uchun lirik chekinishda shoir yozadi:

Ichib may, saltanat ilmay ko'zumga.
Qilay zulm, elga qilg'uncha o'zumga! [40. 297]

Xusrav butun boshli qo'shin bilan Farhodni yenga olmaydi. Zero Arman diyoriga olib boradigan yagona tor yo'l Farhod tomonidan to'sib qo'yilgan. Aslida esa g'oya:

Ki haq olinda butmas ming sipahdin,
Ish andoqkim bir ohi subhgahdin. [40. 305]

Xusravni g'azabga keltirgan uni zulm yo'liga qadam qo'yishga majbur qilgan ikki holat:

Bir ulkim, har ne aylab erdi maqsud,
Sarosar topti yor olinda mardud.

Bu ham ozurda ko'nglin etti maqtul,
Raqib o'lmoq habib olinda maqbul.

Chu qildi podshahlik e'tiborin,
G'azab oldi ilikdin ixtiyorin.

G'azab tig'in chiqarsa podshahlar,
Ulug' mujrimcha bordur begunahlar.

Tadqiqotlarda ko'p bora tilga olinadigan mashhur munozara Xusrav va Farhod timsollari mohiyatini, Navoiyning "ishq" haqidagi konsepsiyasini yoritishga imkon beradigan asarning muhim nuqtalaridan biridir. Xusrav munozaraga shunday kirishadi:

Shukuhidin yetib Xusravg'a tag'yir,
Qilib ishq o'ti ko'nglig'a ta'sir.

Unutti aylamakni qatl-u bedod,
Anga boqib takallum qildi bunyod.

Farhodning shukuhi va ishq g'azab o'tida yonib turgan Xusravning qalbini yumshatdi, "tag'yir" etdi. U Farhodga shunday savol berdi:

Dedi: Qaydin sen, ey Majnuni gumrah?

Bunda S.Erkinovning fikricha, Xusrav "Farhodni jinnilikda ayblab, suvni loyqalatib yuboradi" [34. 120], N.Komilov ta'birlaricha esa, Xusrav "majnun" so'zini "kesatish, kamsitish ma'nosida" ishlatadi" [19. 212]. Bizningcha, bu haqorat ham kesatish yoki nopisandlik ham emas. Zero Xusrav nazdida Farhod chindan ham aql-u hushini yo'qotgan telbadir. Uning ikkinchi savoli ham tabiiy:

Dedi: Nedur senga olamda pasha?

Biroq Farhod oddiy suhbatdosh emas, oshiq. Uning javoblari ("majnun vatandin qayda ogah, isq ichra majnunluq hamesha") ishq ahli uchun tabiiy, biroq dunyoviy aql egasi uchun, kesatiq, kinoyadir. Shu tariqa munozara davomida Xusravning qayta g'azab otiga minishi tabiiy jarayon sifatida ko'rsatilgan. Biroq bu holatdan uning o'zi ham afsuslanadi:

Yebon Xusrav dag'i ul ishdin afsus,

Vale qo'ymoy aning tarkiga nomus. [40. 333]

A.Qayumovning fikrlariga ko'ra "Dostonning Buzurg Ummid bilan bog'liq bir qismida sal noaniqlik bordek tuyuladi. Chunonchi, Buzurg Ummid bergan maslahatga binoan zoli makkor Farhodga endi sen ham umidni uzib, o'z yurtingga ketgin, degan gaplarni yetkazishi kerak edi.

Zoli makkor esa, Farhod huzuriga borib, bu gaplarning tamomila teskarisini aytadi. U Farhodga Shirin Xusravga tegishga rozi bo'lmay o'zini o'ldirdi, deydi. Shu yolg'on gapi bilan zoli makkor Farhodni halok qiladi.

Bu holatning talqinida ikki omilga ahamiyat berish kerak.

...Xusrav Farhodning Chin shahzodasi ekanini bilgandan so'ng uni qatl etishga jur'at qilmaydi... Farhodga oxirgi zarbani yetkazishdan oldin ham Xusrav va Buzurg Ummid Farhodni Armandan o'z yurtiga qaytarib jo'natmoqchi, shu bilan undan qutulmoqchi bo'ladi.

...Xusrav o'z qilmishlari bilan zoli makkordan qolishmasa-da, dostonning shu qismida Farhodning bevosita qotili qilib ko'rsatilmaydi.

Ikkinchidan, zoli makkor Xusrav va Buzurg Ummidning haqiqiy maqsadini anglagan edi. Shuning uchun u o'ziga berilgan topshiriqni dadillik bilan o'zgartiradi [37. 162-163].

Xusravga nisbatan "zulm" so'zini Navoiy faqat bir marta ishlatgan:

Ki, Xusrav zulmi haddin oshmish erdi,

Jafosi tund seli toshmish erdi.

Nizomiy Ganjaviyning dostonida Xusrav Shiringa yetishgandan keyin unda ijobiy tomonga o'zgarish sodir bo'ladi. Navoiy yaratgan Xusravda esa bunday imkoniyat yo'q.

Biz yuqorida keltirilgan mulohazalar orqali Xusrav timsolining xatti-harakatlarini oqlash, yoki uni ijobiy obraz sifatida ko'rsatishga intilmadik. Buning imkoni ham yoq. Biroq uning harakatlarida favqulodda tajovuzkorlik, zulm,

qo'pollik emas, jamiyatning aksariyat vakillarida uchraydigan kamchiliklarnigina ko'rish mumkin. Har qanday kamchilikdan xoli qilib yaratilgan Farhod timsoli oldida ular yaqqol namoyon bo'ladi. Oddiy kishi faoliyatida unchalik sezilmaydigan bu kamchiliklar davlat boshlig'i faoliyatida ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Alisher Navoiy Xusravni yovuzlik timsoli sifatida yaratgan emas. Faqat Nizomiy Ganjaviy va ayniqsa, Xusrav Dehlaviy yaratgan Xusrav timsollaridagi ijobiy fazilatlarni ko'rsatmadi. Oldingi dostonlarda Xusrav tomonidan yo'l qo'yilgan eng katta xato Navoiyning asarida bir oz bo'rttirilgan, tafsilotlar bilan boyitilgan tarzda bayon etiladi. Zero Navoiyning asosiy maqsadi Farhod va uning ruhiyatida kechayotgan o'zgarishlardir. «Bunday sharoitda Xusrav, albatta, fors an'analari nisbat bergan barcha ijobiy xislatlardan marhum bo'lishi kerak» [10. 238].

XULOSA

Azaldan ma'rifatparvar xalqimizning azaliy orzularini ro'yobga chiqargan Milliy istiqlol buyuk ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratigan madaniy, ma'naviy va adabiy merosimizga yangicha, xolis nigoh tashlash imkonini berdi. Xususan, buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy yaratgan bebaho xazinalar yuksak milliy va umuminsoniy qadriyatlar qomusi bo'lgan asarlarni yanada izchilroq, teranroq o'rganish, ularni jahon adabiyotining durdona asarlari bilan qiyoslash borasida jiddiy yutuqlarga erishilmoqda. Alisher Navoiy ijodining undan oldin yashagan Sharqning buyuk mutafakkirlari, forsiyzabon va turkiyzabon shoirlar adabiy merosi bilan munosabati masalasida bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Bular qatorida Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini shu mavzudagi asarlar bilan qiyosan o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega.

Navoiyshunoslik borasida dastlabki monografik tadqiqotlar muallifi bo'lgan Y.E.Bertels o'zining "Nizomiy" monografiyasida "Farhod va Shirin" dostonini "Xusrav va Shirin" mavzusidagi asarlar bilan qiyosan o'rganish ishlarini boshlab berdi.

Bu ishlar keyinchalik mashhur lutfiyshunos va navoiyshunos olim S.Erkinovning doktorlik dissertatsiyasi hamda monografiyasida izchil yoritildi. XX asrning turli yillarida yaratilgan A.Haitmetov, A.Qayumov, A.Abdug'afurov, B.Valixo'jayev, T.Jalolov va boshqa ko'plab olimlarning ilmiy maqola, risola va monografiyalarida Xusrav timsoli haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Ushbu malakaviy bitiruv ishida yuqorida tilga olingan ilmiy manbalarni, ularda bildirilgan fikr-mulohazalarni imkon doirasida sharhlash, umumlashtirishga harakat qildik. Shu bilan birga Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni matniga bevosita murojaat etgan holda u yaratgan Xusrav timsolini o'zining tili bilan ta'riflashga intildik. Zero sobiq ittifoq davrida yaratilgan tadqiqotlarda u yoki bu darajada davr mafkurasining ta'siri sezilgan holda Xusravni o'ta salbiy obraz sifatida bo'rttirib talqin etish kuzatilar edi. Xususan "makkor va zolim, qo'rqq, shafqatsiz va qonxo'r, ikkiyuzlamachi, beburd, kaltabin, axmoq, soxta oshiq» kabi

insonga xos bo'lgan deyarli barcha illatlarni unga nisbat berish odat tusiga kirgan edi. Vaholanki bunday illatlar egasi bo'lgan kishi o'rta asrlarda "tangrining yerdagi soyasi" deya e'tirof etiluvchi hukmdor darajasiga yeta olmasligi Alisher Navoiyga hammadan ko'ra ko'proq ma'lum edi. Binobarin, "Atodin to ato xusravnishon" bo'lgan Xusravni bu tarzda talqin etishi mumkin emas edi.

Malakaviy bitiruv ishi davomida o'rganilgan masalalar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Xusrav Parvez insoniyat tarixida muayyan iz qoldirgan shaxslardan biri. Uning murakkab tarzda kechgan, sarguzashtlarga boy hayoti ayniqsa Shirin bilan bo'lgan munosabatlari uning shaxsiyatiga bo'lgan munosabat tarixiylikdan badiiylilik tomon o'zgarib borishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Xusrav Parvez haqidagi tarixiy manbalar va ma'lumotlar davr o'tishi bilan muayyan o'zgarishlarga uchradi. Agar dastlabki solnomalarda Xusrav buyuk hukmdor, har qanday kamchiliklardan xoli bo'lgan mukammal shaxs sifatida tasvirlangan bo'lsa, keyinchalik, uning shaxsiyatida ayrim nuqsonlar ham namoyon bo'la boshladi.

Xusrav Parvezning dastlabki tarixiy-badiiy timsolini yaratgan Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"sida Xusrav Parvez sarguzashtlari ilk bora tugallangan, muayyan sujet va kompozitsion butunlik kasb etgan holda namoyon bo'ladi. Shahzoda, podshoh hamda shohlikdan ag'darilgan Xusrav mazkur asarda o'zining barcha fazilat va illatlari, yutuq va kamchiliklari bilan birgalikda namoyon bo'ladi.

Xusrav timsolini ilk marotaba alohida dostonning bosh qahramoni darajasiga olib chiqqan Nizomiy Ganjaviy talqinida Xusrav faqat Eron sulolalarining yirik vakiligina emas, to'laqonli murakkab badiiy obraz darajasiga ko'tarildi. Bunda uning Shirin bilan bo'lgan sarguzashtlari qatorida Xusrav-Farhod ziddiyati ham muhim ahamiyat kasb etti. Buyuk mutafakkir va yuksak istedod sohibi bo'lgan Nizomiy Xusrav timsolining takomillashuvi, dinamikasini yorqin hayotiy misollar bilan ko'rsatib berdi. Xusrav Dehlaviy dostonida esa Xusrav o'z faoliyatining dastlabki davrlaridanoq, adolatpeshaligi, aqli, shijoati, raiyatparvarligi bilan ijobiy qahramon sifatida gavdalanadi.

Xusrav obrazida ko'proq salbiy xislatlarni jamlab ko'rsatish tendensiyasi Orif Ardabiliyning "Farhodnoma" dostonidan boshlab an'anaga aylana bordi. Bu dostonda Xusrav eng ko'ngilsiz voqealarning sababchisi sifatida gavdalanadi.

Alisher Navoiyning tarixiy Xusravga munosabati uning "Tarixi muluki Ajam" asarida aks etgan. Navoiy nazdida Xusrav ideal hukmdor ham zolim podshoh ham emas. U muayyan nuqsonlarga ega bolgan (takabbur, izzattalab, hissiyotni aqldan ustun qo'yadigan) davlat arbobi. Navoiy uning "Farhodning begunoh qatlig'a" bois bo'lganligini e'tirof etsa-da, bunda Shirinning "bovujudi Xusravdek podshoh, ko'ngli Farhodqa mayl" qilganligi ham sabab bo'lganligini qayd etadi.

"Farhod va Shirin" dostonining muqaddima boblaridanoq ma'lum bo'ladiki, Alisher Navoiy Xusrav va u bilan bog'liq voqelikka tarixiylik nuqtai nazaridan emas, o'zining g'oyaviy-badiiy maqsadi nuqtai nazaridan yondashadi. Garchand shoir ko'p "tavorix" izlaganligi va ulardan o'zi uchun kerakli ma'lumotlarni topganligini ("Topildi oncha so'z kim, komim erdi") qayd etsa-da, bir qator masalalarda u tarixiy voqelikni o'zgartirganligi ma'lum bo'ladi. Bu o'zgarishlar asardagi Xusrav, Shirin va Bahrom (Bahrom Cho'bina) timsollari bilan bog'liq. Biroq bu o'zgarishlar shunchalik ishonarli tarzda bayon etilganki, tarixshunos kishida ham jiddiy e'tiroz tug'dirmaydi.

Dostonda Navoiy Xusrav sarguzashtlarining faqat Farhod bilan bog'liq epizodlarini kiritgan.

"Farhod va Shirin" dostonidagi Xusrav timsolining xatti-harakatlarini favqulodda tajovuzkorlik, zulm, qo'pollik sifatida baholash, nazarimizda, to'g'ri emas. Uning shaxsiyatida jamiyatning ko'pchilik vakillarida uchraydigan kamchiliklar namoyon bo'ladi. Oddiy kishi faoliyatida unchalik sezilmaydigan bu kamchiliklar davlat boshlig'i faoliyatida ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Har qanday kamchilikdan xoli qilib yaratilgan Farhod timsoli oldida esa ular yaqqol namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy Xusravni, bizningcha, yovuzlik timsoli sifatida yaratgan emas. Faqat Nizomiy Ganjaviy va ayniqsa, Xusrav Dehlaviy yaratgan Xusrav

timsollaridagi ijobiy fazilatlarni ko'rsatmadi. Oldingi dostonlarda Xusrav tomonidan yo'l qo'yilgan eng katta xato Navoiyning asarida biroz bo'rttirilgan, tafsilotlar bilan boyitilgan tarzda bayon etiladi. Zero Navoiyning asosiy maqsadi Farhod va uning ruhiyatida kechayotgan o'zgarishlardir. Y.E.Bertels qayd etganidek, «Bunday sharoitda Xusrav, albatta, fors an'analari nisbat bergan barcha ijobiy xislatlardan marhum bo'lishi kerak» edi [10. 238].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Siyosiy va mafkuraviy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma`naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e`tibor - ma`naviyatga, kelajakka e`tibor. – Toshkent: O`zbekiston, 2009.
3. Karimov. I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O`zbekiston, 1998, 524-b.
4. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т.: Янги авлод, 2001.- 184 б.

II. Ilmiy adabiyotlar

5. Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. - Т.: Фан, 1995.
6. Алиев Г.Ю. Легенда о Хусраве и Ширин в литературах народов Востока. - М.: Наука, 1960.
7. Алишер Навоий «Хамса»си. Тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1986.
8. Арасли Ҳ. Навоий меросини ўрганиш тарихидан // Тил ва адабиёт масалалари. 1960-йил, 3-сон.
9. Бегдели Ғ. Шэрг эдэбијјатында «Хосров вэ Ширин» мөвзусу. - Бакы: Елм, 1970.
10. Бертельс. Е.Э. Навоий (Рус тилидан И.Мирзаев таржимаси). – Т: Тафаккур қаноти, 2015.
11. Бертельс. Е.Э. Избранные труды. Низами и Фузули. – М.: Издательство восточной литературы, 1962.
12. Бертельс. Е.Э. Избранные труды. Наваи и Жами. – М.: Наука, 1965.
13. Бертельс. Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – М.: Наука, 1960.
14. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи (Ўқув қўлланма). II қисм. – Сам.: СамДУ нашри, 2002.

15. Валихўжаев Б. Хамса такмили. Алишер Навоий «Хамса»си. Тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1986. 81-89 б.
16. Валихўжаев Б. мумтоз сиймолар. 1-китоб. -Т.: А.Қодирий, 2002.
17. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (O'quv qo'llanma). –Т.: Yangi asr, 2006.
18. Жалолов Т. Хамса талқинлари. - Т.: Badiiy adabiyot, 1961.
19. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. - Тошкент: Ёзувчи, 1996.
20. Комилов Н. Хизр чашмаси. –Т.: Маънавият, 2005.
21. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1976.
22. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Фан, 2005.
23. Муҳиддинов М. Навобахш ҳикматлар. - Сам.: СамДУ нашри, 2013.
24. Низами (Сборник научных статей). IV. Баку, 1947.
25. Очилов Э. Барҳаёт сиймолар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012.
26. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Фан, 1977. 149-бет.
27. Рустамов А. XIV аср Хоразм ёдномалари. – Тошкент: Фан, 1973.
28. Салоҳий Д. Навоий назмиёти (Ўқув қўлланма). – Тошкент, 2012.
29. Салоҳий Д. Навоий эпик шеърляти (Услубий қўлланма). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011.
30. Тоҳиров С. Хусрав ва Фарҳод мунозарасининг қиёсий типологиясига доир мулоҳазалар. Тил ва адабиёт муаммолари. – Сам.: СамДУ нашри, 2013. 23-31-бетлар
31. Тоҳиров С. Форс-тожик ва туркий достончиликда Хусрав ва Фарҳод мунозараси. Ўзбек ва Шарқ халқлари адабиётида эпик анъана: миллий талқин масалалари. Халқаро илмий анжуман. – Тошкент: ТошДШИ нашри, 2014. 186-192-бетлар.
32. Шомухаммедов Ш. Форс-тожик адабиёти классиклари. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1963.
33. Эркинов А. Алишер Навоий «Хамса»си талқинининг 15-20 аср манбалари. Док. диссерт. автор - Тошкент, 1998.

34. Эркинов С. Навоий «Фарҳод ва Ширин»и ва унинг қиёсий таҳлили.
– Тошкент: Фан, 1971.
35. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1971.
36. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 2-том. – Т.: Фан, 1974.
37. Қайюмов А. «Фарҳод ва Ширин» сирлари. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги
Адабиёт ва санъат, 1979.
38. Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. - Т.: Фан, 1993.
39. Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. – Т.: Фан,
1970. 280-бет.

IV. Adabiy manbalar

40. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. Саккизинчи том. Фарҳод ва Ширин
(Нашр тайёрл.С.Ғаниева). – Т.: Фан, 1991. 7-478- б.
41. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 14-том (Махбуб ул-қулуб). – Тошкент:
Фан, 1998.
42. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 16-том (Муҳокамат ул-луғатайн.
Тарихи мулуки Ажам). – Тошкент: Фан, 2000.
43. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
44. Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома (Танланган дostonлар). – Т.: Адабиёт
ва санъат, 1984. 633-679-бетлар.
45. Фирдавсий. Шоҳнома. Жилди VIII. - Душанбе: Ирфон, 1966.
46. Фирдавсий. Шоҳнома. Жилди IX. - Душанбе: Ирфон, 1966.
47. Амир Хусрави Деҳлави. Осори мунтахаб. Жилди якӯм. Ширин ва
Хусрав. – Душанбе: Ирфон, 1971. 7-230-саҳ.
48. Низомии Ганжави. Куллиёт. Жилди якум. Хусрав ва Ширин (Нашрга
тайёрловчи З.Ахрорий). – Душанбе: Ирфон, 1983. 24-412-саҳ.
49. Низомулмулк. Сиёсатнома. – Душанбе: Адиб, 1989.
50. Қутб Хоразмий. Хусрав ва Ширин. Уч булбул гулшани. – Тошкент:
Бадиий адабиёт, 1986. 331-618-бетлар.

MUNDARIJA

Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi	3
1-bob: Xusrav Parviz tarixiy shaxs va badiiy timsol sifatida.....	8
1.1. Xusrav timsolining tarixiy ildizlari.....	8
1.2. Xusrav timsolining badiiy adabiyotga kirib kelishi.....	15
2-bob: XII-XV asrlar adabiyotida Xusrav timsolining	
badiiy takomili.....	23
2.1. Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonida	
Xusrav timsoli.....	23
2.2. XIII-XV asrlar adabiyotida Xusrav timsoli.....	31
3-bob: ”Farhod va shirin” dostonida Xusrav timsolining g’oyaviy	
maqsadi va badiiyati.....	39
3.1. Alisher Navoiyning ”Farhod va Shirin” dostonida	
salafar va ularning asarlariga munosabat.....	39
3.2. ”Farhod va Shirin” dostonida Xusrav timsoli.....	45
Xulosa	54
Foydalanilgan adabiyotlar	58